



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIV TA‘LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI

**“TARIX FANINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLAR” MODULI
BO‘YICHA**

O‘QUV – USLUBIY MAJMU‘A

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Tarix

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylarning pedagog xodimlari.

NUKUS – 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIIY TA‘LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

«Tasdiqlayman»
Mintaqaviy markaz direktori
_____ K.Ubaydullaev
«__» _____ 2025
yil

**“TARIX FANINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLAR” MODULI
BO‘YICHA**

O‘QUV – U SLUBIY MAJMU A

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Tarix

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylarning pedagog xodimlari.

Nukus-2026

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

t.f.n. dots. G.Karamanova

Taqrizchi:

t.f.n. dots. Saymanov S.

O‘quv -uslubiy majmua Qoraqalpoq davlat universitetining kengashining 20____
yil _____dagi ____ - sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

- I. ISHCHI DASTUR **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**
- II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI. **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**
- III. NAZARIY MATERIALLAR 13
- IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**
- V. KEYSLAR BANKI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**
- VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**
- VII. GLOSSARIY **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**
- VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

O'quv-uslubiy majmua Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Modul yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- zamonaviy ta'lim paradigmasida interaktiv o'qitishning o'rni, o'quvchini faol subekt sifatida shakllantirishda interaktiv metodlarning didaktik imkoniyatlarini;
- tarix ta'limida kompetensiyaviy yondashuv va interaktiv metodlarning uyg'unligini;
- tarix darslarida qo'llaniladigan interaktiv metodlar tasnifi: muammoli ta'lim, munozara va debatlar, tarixiy rekonstruksiya, simulyatsiya va loyiha asosida o'qitish metodlarini;
- matnli, vizual va raqamli tarixiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va talqin etishda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni;
- tarixiy voqea va jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashda guruhli va juftlikda ishlash texnologiyalarini;
- o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlarning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari ***bilishi*** lozim.

Tinglovchi:

- tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish;
- har bir metodning tarix fanining mazmuni va dars maqsadlariga mos holda qo'llanish xususiyatlarini o'rganish;
- tarixiy voqea va jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashda guruhli va juftlikda ishlash texnologiyalarini qo'llash;
- tarixiy hujjatlar, xaritalar, statistik ma'lumotlar va vizual materiallar asosida interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqish ***ko'nikma va malakalariga*** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- hamjihatlik, o'zaro hurmat va tolerantlikni kuchaytirish;
- tarixiy manbalar bilan ishlashda interaktiv metodlardan foydalanish;
- matnli, vizual va raqamli tarixiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va talqin etishda tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tadbiq etish;
- tarix darslarini loyihalashda interaktiv metodlarni integratsiyalash;
- tarix fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishda pedagogik etika, akademik halollik tamoyillari va yosh xususiyatlariga moslikka rioya qilish

kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Tarix fanini o‘qitishning interaktiv metodlari” moduli materiallari bilan kurs tinglovchilarini tanishtirish ma’ruza va seminar mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limining zamonaviy usullari, kompyuter texnologiyalari, internet tarmog‘idan olingan yangiliklarni qo‘llash usulidan foydalaniladi. Ma’ruza va seminar darslarida mos ravishdagi ilgor pedagogik texnologiyalardan (“Klaster”, “Bumerang”, “FSMU”, “Blits-uyin” va h.k.) foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning soatlar bo‘yicha taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			jumladan			
			Nazariy	Amaliy	kuchma	
1.	Zamonaviy ta’lim paradigmasida interaktiv o‘qitishning o‘rni	2	2	2		
2	Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarixiy rekonstruksiya	4	2	2		
3.	Tarixiy manbalar bilan ishlashda interaktiv metodlardan foydalanish. Tarix darslarini loyihalashda interaktiv metodlarni integratsiyalash.	4		2		
Jami:		10	4	6		

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Zamonaviy ta’lim paradigmasida interaktiv o‘qitishning o‘rni

Tarix o‘qitishning ahamiyati. Zamonaviy ta’lim paradigmasida interaktiv o‘qitishning o‘rni, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishda interaktiv metodlarning didaktik imkoniyatlari. Tarix ta’limida kompetensiyaviy yondashuv va interaktiv metodlarning uyg‘unligi. Har bir metodning tarix fanining mazmuni va dars maqsadlariga mos holda qo‘llanish xususiyatlari.

Tarix ta’limida pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. Guruhlarda hamkorlikda o‘qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. Keys texnologiyasini mazmun-mohiyati. Loyiha texnologiyasi haqida tushuncha.

2-Mavzu: Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarixiy rekonstruksiya

Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarix darslarida qo‘llaniladigan interaktiv metodlar tasnifi: muammoli ta’lim, munozara va debatlar, tarixiy rekonstruksiya, simulyatsiya va loyiha asosida o‘qitish metodlari.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlarning uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari. Pedagoglarga qo‘yiladigan asosiy talablar. Pedagogik mahorat. Zamonaviy talab darajasida bilim berish kriteriyalari haqida

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot:

Zamonaviy ta’lim paradigmasida interaktiv o‘qitishning o‘rni

Bugungi kunda tarix ta’limi jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqishni ortib borishi.

Tarix o‘qitishning ahamiyati. Zamonaviy ta’lim paradigmasida interaktiv o‘qitishning o‘rni, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishda interaktiv metodlarning didaktik imkoniyatlari. Tarix ta’limida kompetensiyaviy yondashuv va interaktiv metodlarning uyg‘unligi. Har bir metodning tarix fanining mazmuni va dars maqsadlariga mos holda qo‘llanish xususiyatlari.

Tarix ta’limida pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. Guruhlarda hamkorlikda o‘qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. Keys texnologiyasini mazmun-mohiyati. Loyiha texnologiyasi haqida tushuncha.

2- amaliy mashg'ulot:

Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarixiy rekonstruksiya

Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarix darslarida qo'llaniladigan interaktiv metodlar tasnifi: muammoli ta'lim, munozara va debatlar, tarixiy rekonstruksiya, simulyatsiya va loyiha asosida o'qitish metodlari.

O'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlarning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari.

Pedagoglarga qo'yiladigan asosiy talablar. Pedagogik mahorat. Zamonaviy talab darajasida bilim berish kriteriyalari haqida

3- amaliy mashg'ulot:

Tarixiy manbalar bilan ishlashda interaktiv metodlardan foydalanish. Tarix darslarini loyihalashda interaktiv metodlarni integratsiyalash.

Matnli, vizual va raqamli tarixiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va talqin etishda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar. Tarixiy hujjatlar, xaritalar, statistik ma'lumotlar va vizual materiallar asosida interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqish.

Tarix darslarini loyihalashda interaktiv metodlarni integratsiyalash. Tarixiy voqea va jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashda guruhli va juftlikda ishlash texnologiyalari. Tarix fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishda pedagogik etika, akademik halollik tamoyillari va yosh xususiyatlariga moslikka rioya qilish.

O'qitish shakllari

Mazkur modul ma'ruza va seminar mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари




ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрафлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича таққатмага ёзма баён қилди:



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллار умумлаштирилди зарурий ахборотлар билан тўлландилар

«Aqliy hujum» metodi.



«Aqliy hujum» biror muammoni echishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Bu metod orqali shaxsni texnik rivojlantirish mumkin. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.


«Aqliy hujum» metodini prinsipi juda sodda:

- Siz bir guruh ishtirokchilarni to'playsiz, hamda ular oldiga biror muammoli vaziyatni echish bo'yicha o'z echimlarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raysiz. Mazkur etapda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarni g'oyasi, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas.

«Aqliy hujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar, ular hatto bo'lmag'ur bo'lsa ham, hisobga olinadi.
3. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi.
4. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.
5. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

«Munozara» metodi



«Munozarani o'tkazish metodi

1. Etakchi, munozara temasini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif etadi.
2. Etakchi qatnashuvchilarga muammo bo'yicha «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini begilaydi.
3. Etakchi «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlaydi. Bu etapda etakchi guruh qatnashchilarini har bir a'zosi o'z fikrini bildirishga sharoit yaratib beradi.
4. Etakchi ikkinchi etapga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi, Ikkinchi etapda «Aqliy hujum» qatnashchilari bildirgan fikr va g'oyalarni. guruhlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi.

Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul echimini topishga harakat qilinadi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

1-Mavzu: Zamonaviy ta’lim paradigmasida interaktiv o‘qitishning o‘rni Reja:

1.1. Tarix va tarix o‘qitishning ahamiyati.

1.2. Tarix o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. Tarix darsida interfaol metodlardan foydalanish.

A) Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi.

B) Pedagogik texnologiya va metodika. Pedagogik texnologiya tushunchasi.

V) Tarix darsida interfaol metodlardan foydalanish.

Kalit so‘zlar: tarix darsi, texnologik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, ta’lim texnologiyasi, didaktik jarayon, o‘qitish texnologiyasi, intellektual rivojlanish, integratsion yondashuv, interfaol metod, keys.

1.1. Tarix va tarix o‘qitishning ahamiyati.

«Bilimli avlod – buyuk kelajakning ...kafolatidir»¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga «Murojaatnoma»sida: «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, engilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak»ligini ta’kidlab, shu maqsadda, O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi tarkibida «O‘zbekiston tarixi» kanalini tashkil etish masalasi qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, «... biz hali yurtimizni, uning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, ulug‘ olimi ulamolarini, bebaho ma’naviy merosimizni to‘liq o‘rganganimiz yo‘q»².

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishidan boshlab ko‘p ming yillik tariximizni va ma’naviy merosimizni haqqoniy ravishda o‘rganish, targ‘ib etish tarix fani oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi va bu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mustaqillik yillarida tarixiy jarayonlarni tadqiq etishda hayot sinovidan o‘ta olmagan, «kommunistik mafkura»ga bo‘ysundirilgan metodologiya o‘rnini tamoman yangicha metodologiya egallay boshladi. Tarix fanida ulkan o‘zgarishlar yuz berib, necha yillar davomida buzib talqin qilingan yoki yashirib kelingan tarixiy voqealarni ilmiylik, xolislik, haqqoniylik tamoyillari asosida tadqiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

¹ Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // «Халқ сўзи» газетаси. 8 декабрь, 2018 йил. - № 253 (7211).

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – Б. 467.

Tarixning jamiyatdagi roli haqida mashhur mutafakkirlarning fikrlarini ko'rsak: Sitseron «tarix – hayot murabbiysidir», Leonardo do Vinchi «o'tgan davr va jahon mamlakatlari o'tmishini bilmoq – inson ko'rki va uning aqliy maqsulidir» degan bo'lsalar, rus tarixchisi N.M.Karamzin «Tarix xalqlarning muqaddas kitobi bo'lib, ularning hayoti va faoliyatlarining ko'zgusi, ota-bobolarining avlodlarga qoldirgan kashfiyotlari va odob-axloqlaridan lavhalar bo'lib, hozirgi davrni sharhlash va kelajakka namuna bo'lib xizmat qiladigan, to'ldiradigan zaruratdir» deydi. V.G.Belinskiy «bugungi kunni tushunmoq va kelajagimiz to'g'risida ishoraga ega bo'lmoq uchun o'tmishimizni so'roqlab surishtirmog'imiz lozim»ligini yozgan bo'lsa, V.O.Klyuchevskiy «avlodlarimizni o'rganib, o'zlikni – o'zimizni anglaymiz. Tarixni bilmasdan turib, biz o'zimizni bu dunyoga nega va nima uchun kelganligimiz, qanday qilib va nimaga intilmog'imizni aniq anglamog'imiz kerak»ligini qayd etadi.

Tarix inson orqali vujudga keladi va inson orqali abadiyatga aylanadi. Inson ongi va tafakkuri, qalbi va tuyg'ulari orqali yuzaga kelgan hodisa sifatida qadriyatga aylanadi. Ana shu jihatdan qaraganda inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyatni taraqqiy ettirish yo'lidagi sa'y harakatlari, butun bir xalq, butun bir jamiyat mentalitetini belgilaydi. Ana shu mentalitet – millat yoki xalqning umumiy madaniy-ma'naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydoni nechog'ligiga qarab taraqqiyotning yohud tanazzulning mazmun-mohiyati ochiladi. Tarix esa ana shu o'ta murakkab, o'ta ziddiyatli, ayni paytda nihoyatda qudratli ruhiyat orqali, faoliyat orqali xotiraga aylanadi³. Bu xotira xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy hayotida aloqida ahamiyat kasb etadi. U xalqimizni boy tariximiz, jahon tan olgan qadriyatlarimiz bilan qurollantiradi, g'urur baxsh etadi va ayni paytda buyuk sivilizatsiya merosxo'rlari sifatida bu merosni boyitgan holda avloddan-avlodga etkazishdek sharaflil vazifani ularga qo'yadi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz», degan edi. Shuningdek, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda». «Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim»⁵.

³ Жўраев Н. Тарих фалсафаси. – Тошкент: «Маънавият», 1999. – Б. 3.

⁴ Караманова Г.К., Аллаберганов Н.М. Халқ ма'навий-ма'рифий ҳаётда тарихнинг о'рни. – Нукус, 2019. – В. 3-4.

⁵ Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ

Prezidentning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga «Murojaatnoma»sida ko'rsatilganidek, biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan, xalqimizni muayyan maqsad sari ishonirib, safarbar etadigan milliy g'oyani yanada rivojlantirishimiz ahamiyatli: «Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim»⁶.

Yoshlarda Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, ota-bobolarimiz ma'naviy jasoratidan g'ururlanish tuyg'usini yuksaltirishda, mustaqilligimizning qadriga etishda tarix fanini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarix xalq o'tmishi va qadriyatlarini o'zida jamlab, kelajak avlodga etkazib berishda muhim manba hisoblanadi. «Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi», - degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

«Tarix» ilmiy atama sifatida ikki o'zaro aloqadorlikdagi tushunchani ifodalaydi. Birinchidan – tarix jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fan bo'lib, uning mazui kishilik jamiyati o'tmishining, uning turli-tuman sohalaridagi taraqqiyoti va o'zgarib borish jarayonini o'rganadigan fandır. Tarix fan sifatida o'tmishdagi va bugungi mavjud ijtimoiy hayotni o'rganadi va o'rgatadi. Ikkinchidan – tarix bu insoniyat to'g'risidagi fan bo'lib, jamiyatning o'tmishini tadqiqot yo'li bilan aniqlab, o'tmishda inson tomonidan yaratilgan, inson zakovatining natijalari bo'lgan jarayonni tadqiq etish va bizgacha o'tgan davrni o'rganib, kelajak avlodga etkazadigan fandır.

Shuning uchun ham uning vazifasi imkon qadar tarixiy jarayonni to'liq, butunligicha, unga integratsion yondashgan holda tadqiq qilishdan iborat.

Tarix fanini o'qitish metodologiyasi deganda bu boradagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishini, ularning natijalarini asoslash yo'llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo'lgan ilmiy bilimlar mexanizmini samarali tatbiq etilishiga aytiladi. Tarix fani metodologiyasi deganda tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi prinsiplariga, shakli va ilmiy jihatdan tarix fani doirasida qo'llaniladigan ta'limotga aytiladi.

Tarix fanini o'qitishning metodologik asosini pedagogik fan bo'lganlikdan, bilish nazariyasi tashkil qiladi. Aloqida didaktikani tashkil qilgan tarix fanini o'qitish metodikasi tarix fanini o'qitishning muammolarini o'rganadigan fan bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham o'quvchilarning o'zligini anglashda, fuqarolik tuyg'usini takomillashtirishda ijodiy rol o'ynaydi.

Tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-ho'nar ta'limi o'quv yurtlarida o'qitiladigan tarix kursining maqsadini, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini, mazmunini, usullarini va tarix o'qitishning eng asosiy vositalarini belgilab beradi.

Tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish

фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси қабул қилинганнинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – Б. 22-23.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи» газетаси, 29 декабрь, 2018 йил.

metodikasining predmetini tashkil qiladi. O'qitish jarayonining ob'ektiv tarzda suyanadigan o'z qonuniyatlari bor. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari bo'lgan maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, uning natijalari o'rtasidagi qonuniy aloqalari qo'yidagicha ko'rinadi:

Tarix kursining maqsadi ta'lim-tarbiya vazifalarining natijali amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga bog'liq bo'lganidek, tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning ilmiy asosda, maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga, o'qituvchining o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish usullari ham da vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liq.

Tarix o'qitishning asosiy maqsadi, albatta o'tmish tarixini o'rganish va Vatanga sodiq jamiyat kishisini tarbiyalashdan iborat.

Tarixni o'qitish deganda - tarixiy material yordamida vatanga munosib ruhda tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayon, yangi o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy ichki hamda o'quv harakatlari tashqi jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda tarix dasturlarida belgilab berilgan tarixiy bilimlar hajmi, o'quv materiali, uning asl mazmunini umumlashtirish, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish va olgan bilimlarini foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, kunikma va malakalar sistemasini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tarix o'qitishni tashkil deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarning uni o'rganishini tashkil qilish, ularning o'rganish faoliyatini o'qituvchining boshqarishiga yordam beradigan usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarini ishga solish va ularni ijodiy bilishga yo'naltiradigan topshiriqlar tizimi hamda ta'limning turli xil formalari dars, amaliy mashg'ulotlari tushuniladi.

Tarix o'qitishning natijalari deganda, tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi, o'quvchilarning tarix fan asoslarini tarixiy materilga mos samarali metodlarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta o'zlashtirishlari, shu assoda yangi jamiyat kishisining zaruriy sifatlarini tarbiyalash o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o'stirish kuzda tutiladi.

1.2. Tarix o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Tarix darsida interfaol metodlardan foydalanish.

Didaktika (ot grech. *didaktikos* – o'qitaman, o'rgataman) – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

“**Didaktika**” atamasi ilk bor nemis pedagogi *Volfgang Ratke* tomonidan “Didaktika, yoki ta'lim san'ati” (1613 y.) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi *YAn Amos Komenskiy*ning “Buyuk didaktika” (1657 y.) asarida ochib berilgan.

Didaktik ta'minot o'quv kursini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va etarli hajmda bo'lishi, pedagog va talabalarning birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va korreksiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik jarayon 3 ta komponentdan iborat: motivatsiya, o'quvchining o'quv-o'rganish faoliyati va uni boshkarishdan iborat. Bunda o'quv soatlarining 30 foizi o'qituvchiga, 70 foizi esa o'quvchilarning o'quv-o'rganish faoliyatiga beriladi. Darsda didaktik jarayonning to'g'ri qo'yilishi ham dars samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi.

A) Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasi, ular yordamida davlatimiz talim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfiylik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi

“Texnologiya“ tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq h'olda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - “*texnos*“ (techne) - sanat, hunar va “*logos*“ (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib “hunar fani“ manosi anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yani: pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida oquvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan tarifdan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan tariflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik nashrlarda “texnologiya“ atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: “o'qitish texnologiyasi“, “o'quv jarayoni texnologiyasi“, “malumot texnologiyasi“ va hokazo.

1930-yillarda “pedagogik texnika“ tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. SHuningdek, bu davrda pedagogik texnologiya deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50 yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi pedagogik texnologiyaga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQSHda “Pedagogik texnologiya“ (Educational Technology), 1964 yildan Angliyada “Technology and

programmed LearningPedagogik texnologiyava dasturli ta'lim“ (Technology and programmed Learning), YAponiyada esa 1965 yildan “Pedagogik texnologiya“ (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

Pedagogik texnologiya muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967 yilda Angliyada Pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National Council for Educational Technology) tashkil etildi va 1970 yildan boshlab “Pedagogik texnologiyajurnali“ (Journal of Educational Technology) chiqa boshladi. AQSHning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham pedagogik texnologiya muammolariga jiddiy etibor berildi. 1971 yilda maxsus “Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiya“ si faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

YAponiyada pedagogik texnologiya muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi Pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud, har uch oyda yapon tilida chiqadigan “Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar“ jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Umumyapon Pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Technology Centers) tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rnatish ishlari bilan mashhur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga etibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o'tkazilgan qator xalqaro konferentsiyalar tasdiqlaydi. SHunday xalqaro konferensiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o'tkazilib kelinadi va anjuman materiallari “Pedagogik texnologiya jihatlari” nomi bilan nashr qilinadi⁷.

Pedagogik texnologiya 1960-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo'nalish sifatida shakllanganligini takidlab turibdi. Tahlillarning ko'rsatishicha, bu davrda pedagogik texnologiya ikki yo'nalishda muhokama qilindi va rivojlantirildi: birinchisi - o'quv jarayoniga texnik vositalarini qo'llash bilan bog'liq bo'lsa (shu jumladan dasturli talimning texnik vositalari), ikkinchisi - o'qitish texnologiyasi masalalarini, yani o'quv materiallarni tahlil qilishdan tortib talim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo'lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi. SHu erda birinchi konferentsiya materiallari (1966 yil) to'planning kirish maqolasida yozilgan juda muhim dalilni keltirish o'rinlidir: “ikki tushuncha - “pedagogika“ va “texnologiya“larni qo'shish mantiqi tortishuvlarga sabab bo'layapdi. CHunki “texnologiya“ so'zi auditoriyaga texnikani kiritish va “degumanizatsiya“ (insonparvarlikdan voz kechish) g'oyasi bilan tavsiflanishi pedagogik kasb vakillarini cho'chitishi mumkin“. Albatta, bu fikr malum darajada to'g'ri bo'lishi mumkin. Biroq texnokratik fikrlash (texnikaning inson va uning qadriyatlarini ustidan ustunligi) fanda qoralanadi yoki inson hech qachon “temir mashina“ga tobe bo'lmaydi, balki uni o'z aql-zakovati bilan yaratadi va boshqaradi. Bu muammoning psixologik jihatlari bo'lib kam o'rganilgan soha.

⁷ Гаффоров Я.Х. Махсус фанларни ўқитишда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш усуллари. – Т.: Университет, 2008. – Б. 18.

70-yillarning boshiga kelib o'quv jih'ozlarining turli xillarini va o'qitishning predmetli vositalarini loyih'alah va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zaruriy shartlardan biriga aylandi, ularsiz ilg'or metodika va o'qitish shakllari samarasiz bo'lishi, talim sifatiga erishib bo'lmasligi anglab etildi. SHu boisdan «sotsialistik lagerdagi» davlatlarda ham bu sohada malum hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1965 yilda sobiq SSSR Pedagogika Fanlari Akademiyasida "o'quv jihozlari va o'qitishning texnik vositalari" ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi va hozir ham Rossiya ta'lim akademiyasi instituti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyai. 1973 yilda Vengriyada "o'qish texnologiyasi Davlat Markazi" bevosita YUNESKO tashabbusi va dasturi asosida tashkil etildi va uning asosiy vazifasi o'qitish texnologiyasining yangi qirralarini kashf etish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi masalalardan iborat bo'ldi.

YUNESKO insonparvar va taraqqiyparvar tashkilot sifatida xalqaro muammolarni o'rganish bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. 1971 yilda YUNESKO sobiq bosh direktori Rene Mais Fransiya Bosh vaziri (ayni vaqtda Talim vaziri) edgaro Foraga murojaat qilib maxsus guruh'ga rah'barlik qilishni, tezkor o'zgarishlar ro'y berayotgan bir sharoitda jahon talimi oldiga qo'yilgan maqsadni va uni amalga oshirish uchun aqliy va moddiy vositalar miqdorini belgilab berishni iltimos qildi.

SHunday qilib, 1972 yilning kech kuzida Buyuk Britaniya va Fransiya kitob do'konlarida "YAshash uchun o'qish. Tarbiya dunyosi bugun va ertaga" (Learning for living. The world of education today and tomorrow) kitobi paydo bo'ldi. Bu voqeaga roppa-rosa 30 yil vaqt o'tgan bo'lsa-da, maruzaning asosiy g'oyalarini eslash foydadan holi bo'lmaydi. Boz ustiga bu kitob boshqalari kabi mamlakatimiz keng auditoriyasiga kirib kelmadi, kutubxonalarimiz boyligiga aylanmagan.

Komissiya tomonidan jahon ta'limining joriy holati tahlil qilinib asosiy yo'nalishlari belgilandi. Komissiya milliy Konsepsiya, shuningdek maorif va tarbiyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun o'z tavsiyalarini ifoda etdi. Bu kontsepsiyaning bosh g'oyasi: inson butun hayoti davomida tiklanish holatida bo'ladi, demak u o'z potentsialini faqat uzluksiz talim jarayonidagina amalga oshiradi - doimo yangiliklarni bilishga va mavjud tajribalarini faollashtirishga intiladi. SHu boisdan malumotlilik faqat ma'lum hajmdagi bilimlarni uzatish bilan bog'liq holda emas, inson o'z hayoti davomida tiklanish jarayonining mantiqini aniqlaydigan omil sifatida tushunish kerak. Eng asosiysi, edgaro Fora tomonidan "zamonaviy texnologiya talimni modernizatsiyalashda harakatlanuvchi kuch" ekanligi qayd etildi.

Bu davrda talim tizimidagi o'zgarishlar turli mamlakatlarda turlicha kechdi: bazi birlari amaliyotdagi mavjud talimni takomillashtirishni avzal ko'rsalar, boshqalari o'z oldilariga hozirgi ta'lim tizimini yangisiga almashtirishni maqsad qilib qo'ydi. Nihoyat, uchinchilari esa jamiyatni o'zgartirmasdan turib talim tizimini isloh qilish mumkin emasligini, vaqtni boy bermasdan yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning yangi tizimini yaratishga kirishish kerakligini etirof etadilar.

Bugun O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati

qurish yo‘lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va talim ustuvorligi qaror topdi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan taminlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarish shartlaridan biridir.

1977 yilda Budapeshtda o‘tkazilgan o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha Xalqaro seminarda talimni texnologiyalashtirish jarayoni bilan bog‘liq omillar rus olimi S.G.SHapovalenko tomonidan quyidagicha belgilandi:

- texnikani bilish va mukammal egallash;
- audiovizual fondi bilan tanish bo‘lish;
- texnik vositalardan foydalanish metodikasini egallash.

Biroq bu fikrning bir yoqlamaligi yakqol ko‘zga tashlanadi. Undan farqli o‘laroq g‘oyalar shu seminar ishtirokchilari tomonidan aytiladi. Misol uchun, venger olimi L.Salai o‘qitish texnologiyasi doirasini bir muncha kengaytirishga urinadi: rejalashtirish, maqsad tah‘lili, o‘quv- tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, maqsad va mazmunga mos keladigan metodlar, vositalar va materiallarni tanlash bevosita pedagogik texnologiyani loyihalashdagi o‘qituvchi faolitiyaga xosligini takidlaydi. SHunga yaqin fikrlar, yani o‘qitish texnologiyasi o‘zida yordamchi vosita va yangi tizimni qamrab olgan h‘olda o‘quv jarayonini rivojlantirishga, uning tashkiliy shakllarini, metodlarini, mazmunini o‘zgartirgan holda o‘qituvchi va talabalarning pedagogik tafakkurlashiga tasir ko‘rsatishi J. Tseller tomonidan takidlandi. Bu malumotlar shundan dalolat beradiki, 70-yillar oxiriga kelib chet ellarda texnika rivoji va talimni kompyuterlash darajasiga bog‘liq holda pedagogik texnologiyaning ikkita jihatlari alohida ajratilib ko‘rsatilgan va tadqiq qilingan: 1) o‘quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish; 2) amaliy masalalar echimini topishda bilimlar tizimidan foydalanish. Misol uchun, YAponiyada bu davrda olib borilgan tadqiqotlar o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning birinchi yo‘nalishi, yani talimning yangi texnik vositalarini yaratish va o‘quv jarayoniga qo‘llash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ((Noshinisono Narou, Educational Technology in Japan, Audio shal Instruction, November, 1979).

Bunday holat boshqa qator davlatlar uchun ham xarakterli bo‘lib, pedagogik texnologiyaning ikkinchi yo‘nalishi - nazariy-didaktik jihatlari 80-yillarning boshida AQSH va Angliyada tadqiqot obektiga aylandi. CHunki “texnologiya“ so‘zi keng manoda nazariy bilimlarni amaliyot maqsadiga ko‘chirish, bu ko‘chirishning aniq yo‘llarini ishlab chiqish zarurati e‘tirof etildi.

SHunday qilib, 80-yillarda pedagogik texnologiyaning mohiyatini oydinlashtirishga bo‘lgan urinishlar yanada davom ettirildi. Bu soha Rossiyalik pedagog olimlarning diqqatini ham jalb eta boshladi. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish tarixi T.A.Ilinaning ilmiy maqolalarida burjua didaktikasining yo‘nalishi sifatida talqin etilsada, u birinchilar qatorida o‘z hamkasblarini bu muammo bilan shug‘ullanishga davat etadi va chet el maktablari va pedagogikasida bu sohadagi yangi va qiziqarli nashrlarning barchasini kuzatish foydali ekanligini aloh‘ida takidlaydi. SHu boisdan 80-yillarning oxiri, 90-yillarda pedagogik texnologiyaning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilish Rossiyada

keng yo'lga qo'yildi. Akademik V.P.Bespalkoning 1989 yilda nashr etilgan "Slagaemye pedagogicheskoy texnologii" kitobi bu sohadagi yirik tadqiqotlarning natijasi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya mamlakatimiz talim tizimida, qolaversa, pedagogik nashrlarda ilmiy tushuncha tarzda qachon paydo bo'ldi? Shubhasiz, yangi soha 1997 yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida dolzarb tadqiqot obekti darajasiga ko'tarildi va ijtimoiy buyurtma sifatida yuzaga qalqib chiqdi. SHu bilan birgalikda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bu muammoga qo'l urildi, aniqrog'i 1993 yilda "Xalq talimi" jurnalida chop etilgan maqolada birinchi marta **pedagogik texnologiya** tushunchasi mohiyati, uning tarifi va malum pedagogik tizim doirasidagi talqini yoritildi.

1997 yil may oyida Samarqand Davlat Universitetida o'tkazilgan "Oliy talimning hozirgi dolzarb muammolari" Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-metodik konferentsiyaning yalpi yig'ilishida "Pedagogik texnologiya" mavzusida maruza qilindi. Maruzada talimni texnologiyalashtirish jarayoni ijtimoiy buyurtma sifatida mavjudligi etirof etildi, pedagogik texnologiya tarifi, mohiyati va tarixi hamda zamonaviy loyihasi metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

XXI asrga qadam qo'yish arafasida G.K.Selevko tomonidan pedagogik texnologiyaga oid yirik metodik asar - o'quv qo'llanma yaratildi va unda pedagogik texnologiyalar tasnifi keltiriladi. Unda olim pedagogik texnologiyalarni 12 turga ajratadi⁸.

B) Pedagogik texnologiya va metodika. Pedagogik texnologiya tushunchasi.

O'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

Pedagogik texnologiya esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi - pedagogik jarayon - o'quvchi(talaba)" funktsional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Metodika bilan pedagogik texnologiyalarni bir biridan farqi bo'lib, ko'pchilik o'qituvchilar buni ajrata olmaydilar. SHu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo'ladi. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko'zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko'chirishdir.

Pedagogik texnologiya o'qitish jarayoning o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni taminlaydi. YOxud pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir. Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyih'alanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

⁸ Гаффаров Я.Х. Махсус фанларни ўқитишда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш усуллари. – Т.: Университет, 2008. – Б. 23.

SHu bilan birgalikda malum vaqt davomida pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70 - yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. YApon olimi T.Sakamoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini taminlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi" ekanligi etirof etiladi.

Obektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning tasiri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiradi. SHuningdek, olima zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: "o'qitish texnologiyasi - bu o'quv jarayonini nima real tavsiflasa o'sha, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa o'sha. Bu alohida fan.

Pedagogik texnologiyani fan sifatida etirof etish K.K.Selevko tomonidan ham maquullandi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'limda qo'llaniladigan usullar, printsiplar va regulyativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir". Olimning takidlashicha "Pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlatiladi:

1) **Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja:** umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya malum mintaqada, o'quv yurtida, malum o'qitish bosqichida yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

2) **Xususiy metodik (predmetli) daraja:** xusuiy predmetli pedagogik texnologiya "xususiy metodika" manosida qo'llaniladi, yani ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig'indisi sifatida bir predmet. sinf, o'qituvchi doirasida qo'llaniladi (fanlarni o'qitish metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).

3) **Lokal (modulli) daraja:** lokal texnologiya o'zida o'quv - tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar enchimini o'zida mujassamlashtiradi (alohida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, alohida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va boshqa).

B.YA.Lernerning fikricha, pedagogik texnologiya - "o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi".

YUqorida keltirilgan tariflardan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilangan boshlang'ich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilgan. Bu kamchilikni birinchi bo'lib akademik V.P.Bespalko payqadi va o'zining yirik asarida "Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir" deb tarifladi. Bu tarif mazmunidan muhim ilmiy prinsiplarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagogik texnologiya o'quvchi(talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba

elementlarini shakllantirish uchun loyihalangani;

- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mah'orat talab etmaydi;

- yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan tariflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada echilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganilib kelindi. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg'or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko'tarila olmay asta-sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo'lgan "Dasturli ta'lim" (Programmirovannoe obuchenie) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi "SHatalovchilik harakat"ini eslash kifoya.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar etarli. Nazariya va amaliyot birligining taminlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiya pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat talim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Darvoqe, pedagogik texnologiyaga "yangi" so'zini qo'shib ishlatilishi nazariyachi olimlar va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib qo'ydi, endilikda talim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglashga harakat qilmoqdalar. SHunday ekan, "yangi pedagogik texnologiya" nimani anglatadi? Bu savolning echimini izohlashga harakat qilamiz.

Birinchiidan, pedagogik texnologiya talim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalangani va belgilangan maqsadni echishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda malum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z tasirini o'tkazadi va talim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. "Maqsad" esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Ikkinchiidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boradi. Pedagogik texnologiyani, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, qishloq xo'jaligi, elektron, axborot va boshqa) kirib kelmoqda. Ro'y berayotgan sifatiiy o'zgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda "o'rganish"ning birlamchi jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalari romiga sig'may, o'qituvchining individual qobiliyatiga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va talim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining malum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o‘z xususiy soh‘asiga, metodlari va vositalariga ega, malum “material“ bilan ish ko‘radi. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog‘liq bilimlar soh‘asi sifatida murakkab va h‘ammaga ham tushunarli bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, h‘atto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o‘ziga xos tomonlari - tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va ananaviy o‘quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga tasir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. SHu erda pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni oydinlashtirish lozim bo‘ladi. Oddiy til bilan aytganda talimda axborot texnologiyasi - bu “o‘quvchi - kompyuter“ o‘rtasidagi muloqotdir.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud.

1.Texnologiya – bu biron-bir ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan uslublar to‘plamidir (talqinli lug‘at).

2.Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir (V.P.Bespalko).

3.Pedagogik texnologiya – bu o‘qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P.Volkov).

4.Pedagogik texnologiya – bu o‘qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to‘plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalar yig‘indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T.Lixachev).

5.Pedagogik texnologiya – bu talim shakllarini optimallashtirish masalani qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlar o‘zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilash sistemali yondoshishidir (YUNESKO).

6.Texnologiya – bu sanat, mahorat, mohirlik, ishlab chiqish metodlari to‘plami, holatini o‘zgartirishdir (V.M.SHepel).

7.O‘qtishi texnologiyasi - bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun so‘zsiz qulay sharoitlar yaratib berish bilan o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil eti shva olib borish bo‘yicha har tomonlama o‘ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M.Monaxov).

8.Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T.Sakamoto).

9.Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o‘zgartiruvchi uning rivojlanish yangi sistemasidir (E.Bistereki va J.Tseller).

10.Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalar sistemali to‘plami va ishlatilishi tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

11.Pedagogik texnologiya – bu talim maqsadiga erishishga qaratilgan o‘qituvchi va quvchining faoliyatini sistemali, kotseptual, qoidali, obektivlashtirilgan,

invariant tasvirlashdir (F.A.Fradkin).

Pedagogik texnologiya bilimlar egallashda rejalashtirish, boshqarish va taminlashshni taxlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g'oyalar, vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSH assotsiatsiyasi).

Ta'lim tizimida yangi texnologiyalar pedagogik jarayoni hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiya masalalari, muammolargi o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o'qituvchi va o'quvchi talabaning natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quv o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa kila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Tarix ta'limi tizimida har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'qituvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Respublikamizning o'ziga xos ta'lim tizimida uzviylikni saqlash ta'limning har bir bo'g'inida umumiy va kasb-hunar ta'limi dasturlarini takomillashtirishga istiqboli yondashuvni talab etadi. SHuningdek, bu talab ilmiy bilimlarning tarix tizimiga moslashgan istiqbolli muvozanati sharoitidagina amalga oshishi mumkin. SHuning uchun ham uzluksiz ta'lim va tarix fani sohasida ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, demografik, madaniy-tarixiy va boshqa tarmoqlar taraqqiyotining istiqbolini belgilashda, uning yaxlit rivojlanishida integratsiyalashni ko'zlovchi uzluksiz ta'limning tizimli yondashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

V) Tarix darsida interfaol metodlardan foydalanish.

O'quvchi yoki talabalarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi:

1. Ma'ruza - eshitganimizning 5%.
2. O'qish - o'qiganimizning 10%.
3. Videousul, namoyish - ko'rganimizning 20%.
4. Tajribani namoyish qilish-ko'rgan va eshitganimizning 30%.

5. Bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40%.
6. Mashqlar - o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50%.
7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%.
8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish - mustaqil o'rganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, boshqalarni o'qitgan narsalarimizning 90%.

YUqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida noan'anaviy metodlar qo'llanilganda, talabalarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, talabalarning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi.

Innovatsiya (inglizcha innovation)- yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- O'quvchi talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- O'quvchi talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va o'quvchi talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'quvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har-bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday

faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabani ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o'qitishning texnik vositalarini, eng asosiysi, talabani imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik kartasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik kartasi har bir mavzu, har-bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik kartani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik kartasiga bog'liq. Darsning texnologik kartasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bulishi kerak. Texnologik kartaning tuzilishi o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xolos etadi, chunki bunday kartada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Texnologik kartada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyati (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi.

Texnologik karta mazmunini faoliyat (texnologik bosqichlar) tashkil etadi va ular quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ta'lim oluvchilarga o'rganilishi kerak bo'lgan mavzuni e'lon qilish. Uning mantiqiy-tuzilmaviy tartibini namoyish qilish va sharhlash. Yangi material bilan tanishtirish;
- o'quv elementlarini o'rganish ketma-ketligi va usullarini bayon qilish;
- ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar to'g'risida axborot berish;

- testlar va amaliy topshiriqlarning variantlarini, ularni baholash mezonlarini taqdim etish, ya'ni yakuniy nazoratning «ochiqligini» ta'minlash;
- o'zlashtirilgan bilimlarning ta'lim jarayonida yoki kelgusi kasbiy faoliyatda qacda kerak bo'lishi to'g'risida axborot berish.

Bu holda «ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi» ning o'zaro munosabatidagi muammo ham hal etiladi. Ta'lim oluvchi ta'lim beruvchining tayyor bilimlar bilan qurollantiradigan ta'sir ob'ektidan mustaqil o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadi. U mustaqil bilim olishga va o'zining o'quv faoliyatini rejalashtirishga, uning natijalariga erishish darajasini belgilashga qiziqtiriladi.

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida to'xtalib o'tamiz. Ushbu keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishgayordam beradi.

Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
Milliy qadriyatlar - ... A. jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrli	CHet el kinolarida ota-onaga hurmat masalasida sharqona tarbiyaga umuman mos

<p>va umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar, hodisalar, sifat, faoliyat va boshqalarning ismi yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy-aksiologik tushunchadir.</p> <p>V. bir millat a'zolari ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari, milliy til, milliy adabiyot, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, sharqona ahloqiy prinsiplari, urf-odatlari, an'analari kabilardir.</p> <p>S. jamiyat taraqqiyoti davomida takomillashib borib, kishilarga hayotning mazmunini chuqurroq tushunish, o'zlarining xatti-harakatlarini ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi.</p>	<p>kelmaydigan iboralarni uchramiz.</p> <p>VAZIYAT: Oila davrasida o'g'il-qizlaringiz bilan birga «YOshlar» telekanalidan chet el filmi tomosha qilayapsiz. Syujetda yosh qiz dugonasiga onasining ustidan shikoyat qilayapti, ya'ni «onamning nazorat qilishlaridan to'yib ketdim, qachon shu uydan ketib, onamdan qutilaman» deydi. Bundan ug'il-qizlaringiz qanday fikrga keladi. O'zingiz bu syujetni ularga qanday qilib izohlab berasiz?</p> <p><i>Javob: Kinoda qizning onasi onalik mehri bilan qizining yaxshi odam bo'lishini, bekor yurmasligini hoqlar edi. Farzandlarima bu kinodagi qizning xatosi ekanligini, onasini o'zi ona bo'lganida yana ham yaxshi tushunishini aytib, bizda sharqona tarbiya beshikdan ona allasi bilan boshlanishini eslatardim. Bekorga bizda «Ona rozi – xudo rozi» deyishmaydi. Ota-ona boshimizdagi tojimizdir.</i></p>
<p style="text-align: center;">BELGILARI:</p> <p>Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – <i>Davlatchilik, demokratiya, adolat, tenglik, tinchlik, mustaqillik</i></p> <p>Moddiy qadriyatlar – <i>mehnat va mehnat kurollari, moddiy ne'matlar.</i></p> <p>Ma'naviy qadriyatlar – <i>ma'naviyat, madaniyat, ilmiy falsafa, ahloqiy-estetik qarashlar, diniy, tarixiy, badiiy, dunyoviy qimmatli nomoddiy boyliklar.</i></p> <p>Iqtisodiy qadriyatlar – <i>texnika va texnologiya, shuningdek, mehnat bozori munosabatlari va hokazo.</i></p> <p>Tabiiy qadriyatlar – <i>insonni urab turgan va insoniyat yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy boyliklar, o'simlik va hayvonot olami, er osti va er usti boyliklari, to'proq, suv, havo kabilar.</i></p>	<p style="text-align: center;">AMALIY KO'NIKMALAR</p> <p>«Ota-onani qadrlash» «Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat» «Mehmondo'stlik» «Ahloq-odob» «Tinch-totuv yashash» «Bitta bolaga ettita mahalla ota-onadir» «Bag'rikenglik» «Mahalla» «Qo'shnihilik-birodarlik»</p>

FSMU texnologiyasi.

Texnologiyaning xarakteristikasi: Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baqslashishga, shu bilan qatorda o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va

egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarni aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu erda:

- F — fikringizni bayon eting;
- S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- M — ko'rsatgan sababingizni asoslovchi dalil keltiring;
- U — fikringizni umumlashtiring.

- o'qituvchi o'quvchilar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;
- yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi kog'ozlarni tarqatadi;

- kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;

- o'qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida ximoya qilishlarini so'raydi;

- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

Vazifa: «Zaxiriddin Muhammad Bobur» mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting:

- (F) - fikringizni bayon eting;
- (S) - fikringiz babiniga biron sabab ko'rsating;
- (M)- ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;
- (U) - fikringizni umumlashtiring.

Javob: F.: Z.M.Bobur faqat hukmdorgina emas, balki yuksak ma'naviyatli inson bo'lgan.

S.: U «Boburnoma»ning muallifi, Hindistonda Amritsar shahrida kutubxona uchun birinchi marta maxsus imorat qurdiradi, Deli shahrida kutubxonaga asos soldi.

M.: Hindiston hukmdori Ibrohim Lodining mag'lubiyatidan so'ng, Malub qo'rg'onida sarkarda G'ozixon Boburga qarshilik ko'rsatadi. Og'ir jangdan so'ng G'ozixonni mag'lub qilgan Bobur eng avvalo, boshqa ayrim hukmdorlar kabi uning xazinaxonasini qidirmasdan, G'ozixonning kutubxonasini topib, qiziqqanligi uchun hattoki o'sha joyda tunab qoladi, uqlamasdan kitoblardan tanglab, ug'illari Xumayunga va Kamronga berish uchun tayyorlab qo'yadi («Dushanba kuni qurg'ong'a kirib sayr qilib, G'ozixonning kitobxonasig'a kirdim. Bir necha nafis kitoblar chiqdi, bir nechasini Xumayung'a berib, bir nechasini Kamrong'a yibordim. Mulloyona (ilmiy-diniy) kitoblar xud bisyor edi. Vale, oncha nafis kitoblarkim, kuz tutulur edi, oncha chiqmadi. Kechasi anda qo'nib, tonglasi

o‘rdug‘a keldim» («Boburnoma». – Toshkent, 1989. – B. 158)).

U.: Bu misollarning o‘zi Z.M.Boburning yuksak madaniyatli, ma’naviyati boy inson bo‘lganligini isbotlaydi⁹.

«Sinkveyn» («besh qator») metodi

Tarixiy bilimlarni shakllantirishda «Sinkveyn» («besh qator») metodi ham ahamiyatli. Unda javoblar 5 qatorda qisqa keltiriladi: 1- qatorda mavzu bir so‘z bilan (ot bo‘lishi kerak) ataladi, 2-qatorda ikki so‘z bilan harakatni ta’riflash (ikki sifat), 3-qatorda ushbu mavzu doirasida harakatlarni ta’riflash (uchta so‘z, fe‘l kiritiladi), 4-qatorda maqsadni ko‘rsatuvchi 4 so‘zdan iborat fraza bo‘ladi, 5-qatorda mavzuning sinonimi ko‘rsatiladi (bir so‘z bilan ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq).

Vazifa: «Amir Temur» mavzusida «Sinkveyn» («besh qator») metodidan foydalanish.

Javob: 1) Amir Temur.

2) Adolatli, g‘amxo‘r.

3) Maverennaxr, Xurosanni birlashtirdi.

4) Kuchli markazlashgan davlat tuzdi.

5) Soqibqiron¹⁰.

«Somoniylar davlati» mavzusi bo‘yicha tarix darsida badiiy adabiyot ya’ni Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridan foydalanishda innovatsion yondashilib, interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, «Savolli keys»dan foydalanamiz:

1. Aka-uka Nasr Somoniy va Ismoyil Somoniy o‘rtasidagi kelishmovchilikning sababini ochib bering.
2. Muhammad Narshaxiy aka-ukachilik munosabatlarini qanday ifodalaydi va tarbiyaviy jihatini aniqlang.
3. Ismoyil Somoniyning olijanoblik fazilatini ko‘rsatib bering.

«Sinkveyn» metodidan foydalanib, Narshaxiy asari bo‘yicha ishlaymiz:

1. Ismoyil Somoniy
2. Oliyjanob, uddaburon
3. Qaramlikka barham berildi
4. Markazlashgan davlatchilik asoslarini tikladi

«Amiri Moziy»¹¹.

Charxpalak texnologiyasi.

Maqsad: talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil

⁹ Г.Караманова, А.Ембергенова. Тарийхый тәлим бериүде интерактив методлардың әҳмийети //«Ғәрезсизлик жыллары тарийх илиминиң раўажланыўы» Республикалық илимий теориялық конференция материаллары. – Нөкис: Miraziz Nukus, 2013. – Б. 51.

¹⁰ Караманова Г. Тарийхты оқытыў методикасы. – Нөкис: “Qaraqalpaqstan”, 2016. – Б. 119.

¹¹ Karamanova G.K., Allabergenov N.M. Tarix o‘qitishda badiiy adabiyotning o‘rni (uslubiy qo‘llanma). – Nukus: QQDU, 2018. – B. 47-48.

ravishda bayon eta olish, o‘zlarini baholash hamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko‘plab fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatish.

O‘tkazish texnologiyasi:

1. Talabalar (sharoitga qarab) guruhlarga ajratiladi.
2. O‘qituvchi ularga mashg‘ulotni o‘tkazish qoidalarini tanishtiradi.
3. Tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi.
4. Dastlab guruh a‘zolari yakka tartibda berilgan vazifani ishlab chiqishadi va tarqatma materialning o‘ng tomoniga o‘z belgisini yoki ismi, familiyasini yozadi. Talaba to‘g‘ri deb bilgan javobini + belgisi bilan ruchkada belgilab chiqadi. Bunga 10 daqiqa ajratiladi.
5. Bajarilgan vazifa boshqa guruh a‘zolari bilan almashtiriladi. Ular ham tarqatma materialning chap tomoniga o‘zining belgisi yoki ismini yozib, noto‘g‘ri deb bilgan javoblarni x belgisi bilan o‘z javobini belgilaydilar. Unga 5 daqiqa vaqt ajratiladi.
6. Tuzatilgan, o‘zgartirilgan materiallarni yana bir marta guruhlar bo‘yicha almashtirish mumkin(guruhlar soniga qarab).
7. Oxirgi almashishdan so‘ng har bir guruh a‘zosi o‘zlari ilk bor to‘latgan materialni tanlab oladilar va unda belgilangan javoblar taqqoslanadi va tahlil qilidilar.
8. O‘qituvchi tarqatma materialda berilgan to‘g‘ri javobni o‘qiydi va talabalar ularni o‘z javoblari bilan solishtirib boradilar.
9. Har bir talaba to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblar o‘rtasidagi farqni aniqlab, to‘plagan balini hisoblab, o‘zini o‘zi baholaydi.
10. Talabalarning baholari sinf jurnaligi qayd qilinadi va mashg‘ulot to‘g‘risida o‘qituvchi o‘z fikr va mulohazalarini bildiradi.

«CHARQFALAK» texnologiyasi (javobi bilan)¹²

№	Ahamiyatli voqealar	1997	1998	1999	2001	2002	2006	2007	2009
1.	Xiva shahrining 2500 yilligi	+							
2.	Samarqand shahrining 2750 yilligi							+	
3.	Buxoro shahrining 2500 yillig‘i	+							
4.	SHahrisabz shahrining 2700 yilligi					+			
5.	Qarshi shahrining 2700 yilligi						+		
6.	Termiz shahrining 2500 yilligi					+			
7.	Marg‘ulon shahrining 2000 yilligi							+	
8.	Toshkent shahrining 2200 yilligi								+
9.	«Avesto» ning 2700 yilligi				+				

¹² Karamanova G. Muzeytaniw. – No‘kis: “Qaraqalpaqstan”, 2014. – B. 143.

10.	«Alpomish» dostonining 1000 yilligi			+					
11.	Imom Buxoriyning 1225 yilligi		+						
12.	Axmad Fargʻoniyning 1200 yilligi		+						
13.	Jalaladdin Manguberdining 800 yilligi			+					
14.	Xorazm Maʼmun akademiyasining 1000 yilligi						+		
15.	Navoiy shahrida «Alisher Navoiy yodgorlik majmuasi» ochildi				+				
16.	Toshkentda «Oʻzbekiston» xalqaro anjumanlar saroyi ochildi								+
17.	Samarqandta «SHarq taronalari» I festivali ochildi	+							
18.	31 avgust – qatagʻon qurbonlarini xotirlash kuni sifatida Oʻzbekistonda 1 marta oʻtkazildi				+				
19.	Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti deb eʼlon qilindi							+	
20.	SHoir, tarixchi Ogahiyning 190 yilligi			+					

9 – 12ta toʻgʻri javob - "qoniqarli"

13 – 16ta toʻgʻri javob - "yaxshi"

17 – 20ta toʻgʻri javob - "aʼlo"

«Bingo oʻyini»

Oʻquvchilarga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalarda sonlar yoki sanalar yozilgan boʻladi. Oʻqituvchi ushbu sonlar yoki sanalar javobi boʻladigan savollarni birimlab oʻqib beradi. Oʻquvchilar esa oʻqituvchining oʻqigan savollariga toʻgʻri keladigan kartochkadagi javob son yoki sanalarning yoniga savolning raqami bilan belgi qoʻyadi. Eng birinchi toʻldirib boʻlgan oʻquvchi «Bingo» deb bildirishi kerak.

720000 (4)	12 (...)	140 (...)	206 (...)
4000 (...)	220 (...)	87 (...)	246 (...)
5 (...)	36 (...)	210 (...)	37 (...)

Oʻqituvchi oʻqib beradigan savollar:

1. Sin SHixuandi hukmdorligi qachon boshlandi? (246)
2. Sin SHixuandi mamlakatni necha viloyatga ajratadi? (36)

3. Sin SHixuandi mavzoleyi qancha vaqt qurilgan? (37)
4. Sin SHixuandi mavzoleyining qurilishiga qancha odam qatnashgan? (720000)
5. Sin SHixuandi qachon dunyodan o'tgan? (210)
6. Lyu Ban qo'zg'oloni qachon bo'lgan? (206)
7. Buyuk Qitoy devorining uzunligi qancha? (4000)
8. Buyuk Qitoy devorining balandligi qancha? (12)
9. Buyuk Qitoy devorining kengligi qancha? (5)
10. U Di hukmdorligi qachon boshlandi? (140)
11. U Di qachon dunyodan o'tdi? (87)
12. Xan imperiyası hıkimdarlıg'ı neshinshi jylg'a shekem dao'am etken? (220)

Jadvalli test

Nazorat uchun topshiriq: Qo'yidagi tarixiy shaxslar va ularga tegishli iboralarni bir-biri bilan muvofiqlashtirib joylashtiring.

1	<i>Gerbert Spenser</i>	A	«Eshitsam unutamani; ko'rsam – esimda qoladi; bajarsam – tushunaman»
2	<i>Konfutsiy</i>	V	«Bugungi yaxshi reja, ertangi jyda yaxshi rejadani ham yaxshiroq»
3	<i>Sitseron</i>	S	«Insoniyat hamisha faqat mkstaqil ta'lim hisobiga yaxshi rivojlangan»
4	<i>Platon</i>	D	«Ilm o'qitish orqali, fazilatlar tarbiya orqali o'zlashtiriladi»
5	<i>Farobiy</i>	E	«Men bo'sh vaqtimda ayniqsa band bo'laman»

1-S, 2-A, 3-E, 4-V, 5-D

Ikki qismli kundaliklar. Ikki qismli kundaliklar o'quvchilarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilar qandaydir katta matnni uyda, o'quv auditoriyasidan tashqari o'qib chiqish topshirig'ini olishganida ikki qismli kundaliklar foydalidir.

Ikki qismli kundalik uchun o'quvchilar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Kog'ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg'otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. YOxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg'otar. O'ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima narsa majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uyg'otdi? SHu munosabat bilan ularda qanday savol tug'ildi? Qisqasi, matnni o'qirgan, o'quvchilar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib borishlari kerak.

«Erga egalik qilish munosabatlari» mavzusi bo'yicha tuzilgan ikki qismli kundalik.

1. Ilk oʻrta asrlarda shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi bilan qishloq xoʻjalik mahsulotlariga boʻlgan ehtiyoj ortib bordi.	Bu esa qishloqlarning nufuzi koʻtarilishiga olib keldi. Bir tomondan, ziroatkor maydonlarga boʻlgan munosabat, ularga egalik qilish shakli asta-sekin oʻzgara boshladi. Ikkinchi tomondan esa, oʻtroq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar oʻrtasidagi aloqalar rivojlanadi.
2. Dehqonchilik uchun yaroqli obikor erlarga boʻlgan talab oshishi bilan katta er egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllandi.	Ular qishloqlarda oʻz taʼsir doirasini kengaytirib dehqon degan nom oldi. Bu soʻz “qishloq hokimi” maʼnosini anglatadi.
3. Bu davrda har bir katta er egasining 30-40, 50-100 va baʼzan undan ortiq chokari boʻlgan.	CHokar – dehqonning hayotini va mol-mulkini qoʻriqlovchi, harbiy posbon.
4. Mamlakatda erga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalar ichida kashovarz va kadivar kabi tabaqalar paydo boʻldi.	Kashovarz – oddiy ziroatkor aholi. Kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram ahli.

T-chizma. T-chizma munozara vaqtida qoʻshaloq javoblar (ha/yoʻq, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan “Xorazmshohning mudofaa rejasi” matnini “tarafdor va qarshi” tamoyiliga asoslanib oʻqilganidan soʻng, bir juft oʻquvchi quyida keltirilganidek T-chizmani tuzishi va besh minutdan keyin, chizmaning chap tomonida Xorazmshohlar davlatining saqlab qolinishi uchun besh minut ichida qancha oʻylab topish mumkin boʻlgan shuncha sababni yozishi mumkin. Soʻngra besh minut mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha koʻp sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh minut mobaynida oʻz T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

Xorazmshohlar davlatining saqlanib qolish sabablari	Xorazmshohlar davlatining saqlanib qolishiga qarshi sabablar
Xorazm davlati koʻp sonli turkiy gvardiya va yaxshi qurollangan koʻngillilar lashkariga ega edi. Mamlakatda qamal qurollari va ularni ishlatishni yaxshi biladigan mohir sarbozlar koʻp edi. Askarlarning umumiy soni jihatidan ham shubhasiz Xorazmshoh birmuncha	Podshoh bilan mansabdorlar oʻrtasidagi kelishmovchiliklar. Podshoh bilan sarkardalar oʻrtasidagi mavjud ixtiloflar. Kengashda dushmanga qarshi zarba berishning yagona rejasini yakdillik bilan belgilab olinmaganligi. Harbiy kengashda boʻljak urushda

ustunroq edi.	qo‘shinni tarqatib, mudofaa taktikasi qo‘llandi.
---------------	--

Konseptual jadval. YOzma ish oldidan materialni uyushtirishning yana bir usuli bor, bu – konseptual jadval. Uchta va undan ko‘p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu usul ayniqsa foydali bo‘ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal bo‘yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontal bo‘yicha esa – ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalar joylashtiriladi.

Masalan konseptual jadval orqali Hindistondagi tabaqalarni taqqoslab ko‘rsatish mumkin.

Tabaqalar	Qaysi guruh vakili ekanligi	Tabaqasining barqarorligi	Turmush tarzi darajasi
Brahmanlar	Yirik er egalari, kohinlar va amaldorlar, aslzodalar	Doimiy	Eng yuqori
Kshatriylar	Harbiylar, jangchilar toifasi	Doimiy	Nisbatan yuqori
Vayshilar	Dehqonlar	Doimiy	O‘rtacha
SHudralar	Xizmatkorlar, hunarmandlar	Doimiy	Past

Erkin yozish. Talabalarga besh daqiqa ichida “Turkiston muxtoriyati” mavzusi bo‘yicha o‘z xayollariga kelgan barcha narsalarni to‘xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e‘lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug‘iladi) ularga o‘z yozganlarini sheriklariga o‘qib berishini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o‘qituvchining ixtiyorida ko‘p imkoniyatlar bo‘ladi. Masalan, juftliklarga o‘z fikrlarini butun guruh bilan o‘rtoqlashishni taklif etish va guruh-y-aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stady» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish	Faoliyat shakli
-----	-----------------

bosqichlari	va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

KEYS-STADI

VAZIYAT: 1. «Qadimgi ajdodlarimizdan qolgan hamma urf-odat, marosimlar qadriyat bo'la oladimi?» degan savolga respondentlarning 44,6 foizi «Bo'la oladi», 31,3 foizi «Bilmadim», 15,6 foizi «Hammasi bo'la olmaydi», deb javob bergan. 3,6 foiz respondent o'z fikrini bildirmagan.

2. «Sizda madaniy qadriyatlarni shakllantirishda kimlar ijobiy ta'sir ko'rsatgan?» degan savolga respondentlarning 64 foizi «Ota-onam», «Do'stlarim», «O'quv yurti» deb, 24 foizi «Kitoblar», «Televidenie», «Radio» deb, 12 foizi «Gazeta», «Jurnal» deb javob bergan.

(Respondent sifatida Navoiy davlat konchilik instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti talabalari, shuningdek, Navoiy shahridagi Navoiy pedagogika kolleji, Navoiy kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji, Navoiy madaniyat va san'at kolleji hamda Navoiy Texnika kollejining 800 nafar o'quvchilari (yigitlar - 60 %, qizlar - 40%) ishtirok etgan. Keys uchun ushbu aniq tadqiqot foydalanildi (G.K.)).

TOPSHIRIQ: Ikki savolga berilgan respondentlar javoblaridan qanday xulosalar chiqarasiz?

1. Birinchi savolga javobni tahlil qilsak, yoshlarning urf-odat va marosimlar mohiyatini anglashlari uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lamini yanada kengaytirish

maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, KEYS bilan ishlashda «Aqliy hujum» metodidan foydalanish mumkin. Masalan, Navro‘z bayrami haqida. Bu bayram qadriyatqa aylangan. Bu bayramni Umar Xayyam o‘z «Navro‘znoma»sida 26 asrdan buyon bayramlanayotganini yozgan. Nima uchun u diniy bayram sifatida sobiq Sovet hukumati davrida bekor qilindi, man etildi? Vaholanki Umar Hayyam davridan 26 asr avval ham bo‘lsa, uni islom dini bilan bog‘lash o‘rinsiz. Nimaga aynan Navro‘z qattiq qoralandi? Sababi, Navro‘z – bu mehri-oxibat, birodarlik, xalqni yana ham jipslashtiradigan bayram edi. Navro‘z kuni hatto urushlar to‘qtagan, xafalashib qolganlar ayni Navro‘zni kutgan, sababi ushbu bayram yarashish imkonini bergan. Beruniy bobomiz ham Navro‘z kuni ertalab odamlar ushbu kunda og‘zimdan faqat shirin gaplar chiqsin deya bir qoshiq bol yalab olishlarini yozgan. Mustaqillik sharofati bilan Navro‘z qadriyatlari tiklanib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarildi. Buni 2010 yili BMT ning 21-martni Xalqaro Navro‘z kuni deb e‘lon qilishlari isbotlaydi.

2. Demak, ota-ona, oila, eng yaqin kishilar yoshlarda qadriyatlarning shakllanishiga birinchi navbatda ta‘sir ko‘rsatadilar. SHuning uchun mazkur sub‘ektlar faoliyatini, ijtimoiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Barcha ta‘lim va tarbiya maskanlarida, o‘kuv dargohlarida yoshlarimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi to‘liq tushunchani shakllantirish uchun aniq reja asosida, muntazam ish olib borilishi joiz. SHuningdek, ommaviy axborot vositalari - matbuot, radio, televidenie milliy qadriyatlar va ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uygunligi borasida amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammolar haqidagi ma‘lumotlarni muntazam tarzda e‘lon qilib borish zarur. Eng muhimi, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida aniq tasavvur beruvchi, ilmiy-ommabop materallarni ko‘proq taqdim etish kerak.

FAKTLI KEYS-STADI

Tarixiy fakt: «1959 yil 17 iyulda AQSH kongresi 13 dekabr kunini Turkiston kuni deb e‘lon qildi». Ushbu faktni O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha darsda Turkistondagi 1917 yil voqealariga bog‘lab foydalanish mumkin. **Keys topshirig‘i: Tarixiy fakt asosida qo‘yidagi savollardan kelib chiqib vaziyatni aniqlang:** 1. Nima uchun biz bu faktni O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha darsda Turkistondagi 1917 yil voqealariga bog‘lab foydalanishimiz kerak? 2. Nimaga aynan XX asrning 50 yillari ya‘ni 1959 yil 17 iyulda AQSH kongresi 13 dekabr kunini Turkiston kuni deb e‘lon qilishini qanday izohlash mumkin?

(Javob berishda «Aqliy hujum», «T-Sxema» metodlaridan ham foydalanish mumkin).

Javob: 1. 1917 yil 13 dekabr kuni Toshkentda Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlash uchun xalq namoyishga chiqib, bolsheviklar hukumati tomonidan o‘qqa tutilib, odamlar o‘ldirildi. Bu voqea «sho‘ro hukumati»ning hokimiyat tepasiga kelayotib o‘zlari joriy qilgan «Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiya»si (1917 yil 2 noyabr) va «Rossiya va SHarqning barcha musulmon mehnatkashlariga» (1917 yil 22 noyabr) murajatnomasi kabi hujjatlarini o‘zlari

inkor etishlarini va ularning haqiqiy jallodlik yuzini ko'rsatdi. 2. Ikkinchi jahon urushidan keyin boshlangan «Sovuq urush» deb tarixdan joy olgan davrda jahonning ikki polyusga ajralishida etakchilik qilayotgan sobiq SSSR va AQSH davlatlari orasidagi siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda 1959 yil 17 iyulda AQSH kongresi 13 dekabr kunini Turkiston kuni deb e'lon qilgan edi. Bunda albatta AQSH sobiq Sovet hukumatining 1917 yildayoq demokratik tamoyillarni chil-parchin qilganligini butun dunyoga oshkar qilishni hoqladi.

Nazorat savollari:

1. Tarixni o'rganishning ahamiyatini isbotlang.
2. Tarix fanining nazariyasi va metodologiyasi nimalardan iborat?
3. Tarixni o'qitish deganda nimani tushunasiz?
4. Tarix kursining mazmunini tushuntiring.
5. Tarix o'qitishni tashkil qilish deganda nimani tushunasiz?
6. Tarix o'qitishning natijalari deganda nimani tushunasiz?
7. Pedagogik texnologiyaning shakllanish haqida nima bilasiz?
8. Pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan tavsiflarni atab ko'rsating.
9. Metodika va pedagogik texnologiya orasidagi farqni nimalarda ko'rsata olasiz?
10. Nima uchun «yangi» pedagogik texnologiya deb yuritiladi?
11. Innovatsion texnologiya tushunchasiga tasnif?
12. Qanday interfaol metodlarni bilasiz, ularning tarbiyaviy tomonlarini ko'rsata olasizmi?
13. Tarix uqitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini foydalanishning ahamiyatini tushuntirib bering.

2-Mavzu: Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarixiy rekonstruksiya

REJA:

- 1. Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish.**
- 2. Tarixiy rekonstruksiya**
- 3. Pedagoglarga qo'yiladigan asosiy talablar. Pedagogik mahorat. Zamonaviy talab darajasida bilim berish kriteriyalari haqida**

1. Tarix darslarida blended learning (aralash ta'lim) va STEAM-elementlar (ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika) kombinatsiyasi o'quvchilarni kreativ fikrlashga, tarixiy jarayonlarni modellashtirishga va AKT orqali mustaqil tadqiqot olib borishga o'rgatadi. Bu yondashuv nazariyani amaliyot bilan bog'lab, tarixiy voqealarni vizuallashtiradi va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Tarix darslarini loyihalashda qo'llash usullari:

- **Blended Learning (Aralash ta'lim):**

- **"Flipped Classroom" (To'ntarilgan sinf):** O'quvchilar uyda tarixiy hujjatlar, videofilmlar yoki virtual muzeylarni tomosha qiladi. Sinfda esa faqat tahlil va munozara olib boriladi.
 - **Onlayn platformalar:** orqali tarixiy testlar, interaktiv xaritalar (Google Earth) va o'yinlardan foydalaniladi.
 - **STEAM-elementlar:**
 - **Science (Fan):** Tarixiy voqealar sabablarini ilmiy tahlil qilish (masalan, qadimgi dehqonchilikni geografik sharoit bilan bog'lash).
 - **Technology (Texnologiya):** Tarixiy shaxslar yoki voqealar haqida 3D-modellarni yaratish, raqamli xronologiyalar tuzish.
 - **Engineering (Muhandislik):** Qadimgi mudofaa devorlari yoki ixtirolarning maketlarini yasash.
 - **Arts (San'at):** Tarixiy mavzuda badiiy ijod, rolli o'yinlar yoki tarixiy davr liboslarini loyihalash.
 - **Mathematics (Matematika):** Tarixiy statistik ma'lumotlar, aholi soni yoki xaritalar ko'lamini hisoblash.
- Bu usul tarix fanini quruq yodlashdan amaliy izlanishga aylantiradi.

Aralash ta'lim-turli xil ta'lim turlarini integratsiyalashni o'z ichiga olgan ta'lim formati bo'lib, masalan, an'anaviy ta'limda auditoriyalarda, laboratoriyalarda va onlayn ta'limda mustaqil o'qish demakdir. Aralash ta'lim talabalarga masofaviy ta'lim tizimidan va o'quv materiallaridan foydalanishga to'liq ruxsat beriladi. Bu tizimda online kutubxonalar va manbalar mavjud. Talabalar bir qism nazorat ishlarini talabalar on-layn tizimida topshirishadi. Shuningdek, tizimda guruhli muloqotlar uyushtiriladi va turli loyihalarni amalga oshiriladi. Elektron ta'limning an'anaviy ta'limdan farqli jihatlari quyidagilar: talabaga kamroq tushuntiriladi, talaba ko'proq mustaqil shug'ullanadi;

o'qituvchi va boshqa talabalar bilan muloqot cheklanmagan bo'ladi.

asosiy muloqot vositalari – chat, forum va elektron pochtdan foydalaniladi.

shuningdek, "virtual elektron sinf" ham mavjud. o'qituvchi ma'ruza o'qishi, virtual seminarlar o'tkazishi mumkin.

guruhli mashg'ulotlarga jiddiy e'tibor qaratiladi, chunki talaba o'zini kompyuterga mixlangandek his qilmasligi va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini egallashi kerak.

fan materiallari interfaol shaklda: matn, audio, video shaklida beriladi, bu materiallar turli rasmlar, grafiklar, sxemalar, animatsiyalar, simulyatsiyalar, fotolar, manbalarga havolalar bilan to'ldiriladi;

talabalarning bilimlari test topshirish, guruhli loyihalar ishlash, esse yozish, ma'ruza va referatlar yozish, nazorat ishlarini bajarish kabi shakllarda nazorat qilinadi;

ma'lumot almashish tizimi – fayl jo'natish va qabul qilish shaklida bo'ladi. O'qituvchiga jo'natilgan ma'lumotlar yaxshilab tekshirilgandan so'ng, shaxsiy mulohazalar, tavsiyalar yoki baho shaklida qaytariladi.

AQSh va Yevropa davlatlarida maktab va kollejlarni blended-learning tizimiga o'tkazishga qiziqish tobora ortmoqda. Uning o'ziga xosliklari

quyidagicha: Ma'ruza mashg'ulotlari. Mashg'ulotlar uchun materiallar to'liq berib boriladi, taqdimotlar ham bo'ladi, chunki talaba mustaqil shug'ullanishi uchun o'quv materiallari bilan yetarli darajada ta'minlanishi zarur. Seminar mashg'ulotlari (face-to-face sessions). Ular ma'ruzalarga qo'shib olib borilishi mumkin. Seminar mashg'ulotlari eng qiziqarli, munozalarlarga boy mavzularni o'zlashtirishda va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladi. Fanning o'quv materiallari (darslik va uslubiy qo'llanmalar). Ular ham qog'oz, ham elektron shaklda mavjud bo'ladi. Elektron shakli qog'oz shakliga qaraganda mazmuni ancha boy, qiziqarli va o'zlashtirishga qulay bo'ladi. On-line muloqot. Bu yangi turdagi muloqot hisoblanadi. Ular odatda chat, forum, e-mail shaklida bo'ladi. Ular orqali talabalar o'zaro muloqot qilishadi va hamkorlikda ishlashadi. O'qituvchiga xohlagan vaqtda savol berish va qisqa muddatlarda javob olish imkoni bo'ladi. Bilim olishda boshqa talabalar bilan maslahatlashib ishlash juda katta yutuqlarga olib keladi. Yakka tartibdagi va guruhli on-line loyihalar. Bunday loyihalar Internetda ishlash, turli manbalardagi axborotlarni tahlil qilish, guruh bilan kelishib ishlash, vazifalarni bajarish bo'yicha mas'uliyat va vazifalarni birgalikda taqsimlash ko'nikmalarini shakllantiradi (hamkorlikda). Hozirgi vaqtda ko'pchilik Yevropa kompaniyalari collaboration usulidan kundalik faoliyatida keng foydalanishadi. Virtual sinf xonasi. Bunda turli Internet aloqa vositalari yordamida, shuningdek, talabalar bevosita o'qituvchi bilan yuzma-yuz uchrashishi, muloqot qilishi mumkin. Bu talabalarga muayyan erkinlik beradi. Audio va video ma'ruzalar, animatsiya va simulyatsiyalar. Bular aralash ta'limning yanada oddiy, boy va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, blended learningning o'ta moslashuvchan tizim ekanligini ko'rsatadi. Ma'ruza darsida ma'lumotlar qisqa beriladi va havola etilgan manbalarda juda ko'plab qiziqarli materiallar, sinov va imtihonlarni topshirish uchun zarur topshiriqlar bo'ladi. Ma'ruzalar asosan Power Point taqdimotlari shaklida bo'ladi. Darslarning bir qismi on-line rejimida bo'ladi. Bunda materiallarni talabalar yakka tartibda mustaqil yoki guruh bo'lib o'zlari o'zlashtirishlari zarur. On-line darslar savol-javob tarzida bo'lishi mumkin. Ishlangan ma'lumotlar o'qituvchiga fayl tarzida yuboriladi va o'qituvchi tomonidan baholanib qaytariladi. Muddatidan kechikkan ishlarni o'qituvchi qabul qilmaslikka haqlidir. Nazorat ishlari o'qituvchi nazorati ostida ham o'tkazilishi mumkin. Yakuniy imtihonlar sinfda o'tkaziladi. Xullas, Blended learning talabalarni o'z faoliyatlarini tashkil qilishga o'rgatadi. Blended learning usulida turli texnologiyalar va vositalar axborotning o'quv materialiga kiritilishiga yordam beradi. Internet esa har bir elementning o'z o'rnida ishlatilishiga imkon beradi. Talaba ma'lumotlarni xohlasa kitobdan, xohlasa internetdan o'zi uchun qulay vaqtda, joyda o'qishi mumkin. Video-ma'ruzalar passiv, o'qish esa faol jarayon hisoblanadi. Asosiy matnga qo'shimcha qilib turli maqolalar, hisobotlar ilova qilinishi mumkin. Ba'zan talabalardan axborotni o'zlari izlashlari talab etiladi. Agar ular mos axborotni topa olishmasa, o'qituvchining o'zi axborotlarni web-saytiga joylab qo'yadi. Matnlar HTML, DOC, AVI, MP3 formatlarida berilishi ham mumkin. Rasmlardan matnlarni qulay va mantiqli bo'lish uchun foydalaniladi. Biroq, rasmlar qo'llanilganda, axborotni yuklash muammosi paydo bo'ladi. Shu sababli, ular Internetga yuklash qulay bo'lgan formatlarda chop etiladi

(JPEG, GIF va h.k.) Aralash ta'limda talabalarni qiziqtirishi uchun ma'lumotlar aniq strukturaga ega bo'ladi. Har bir mashg'ulot 3 qismdan – dastlabki, hozirgi va keyingi bosqichlardan iborat bo'ladi. “Hozirgi” bosqichi bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va h.k.). Bu jarayonda o'qituvchi talabalarning berilgan mavzu bo'yicha savollarini va izohlarini kuzatib boradi. Bu bosqichda o'qituvchi xohlasa, ma'ruza shaklida ma'lumotlarni bayon qilib berishi ham mumkin. Talaba “hozirgi” bosqichga tayyor bo'lishi uchun u oldingi darsning materialini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi mumkin. Dars yakunida materiallar testlar, savollar va amaliy masalalar yordamida mustahkamlanadi. “Dastlabki” bosqichda talaba o'qituvchi yoki boshqa talabalar bilan birgalikda muloqotga, darsga tayyorlanadi. Buning uchun o'qituvchi albatta biror topshiriq berishi zarur. Shunday qilinsa, dars vaqtida ortiqcha takrorlanishlar bo'lmaydi va mashg'ulot samarali bo'ladi. Shunda talabalar dars vaqtida faqat ma'lumot olibgina qolmasdan, murakkab masalalarni yaxshi tushunib oladi. “Keyingi” bosqichda bevosita muloqot qilinadi (seminar, forum va h.k.). Bu jarayonda o'qituvchi talaba dars materialini mustahkamlaydi (test, uy ishi va h.k.). O'qituvchi avval talabalarning savollariga javob beradi va keyin bajarilgan ishlarga izoh beradi. Bunda u talabalarni keyingi mavzuga qiziqtirib yo'naltiradi. Shunday qilib, bu bosqichlar har bir darsda takrorlanadi. Talabalar shunday yo'l bilan ortiqcha muhokamalarga, keraksiz va oldindan ma'lum materiallarni takror tinglashga vaqtlarini ketkazmasdan darslarda amaliy ish, muloqot, loyihalarni ishlash uchun ko'proq vaqt to'plashadi. Ma'lumotni ajrata bilish, mustaqil ishlash, nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish kabi ko'nikmalarni orttirishadi.

Hozirda bunday atama bilan Yevropada Blended learning tizimida o'qiydigan talabalarni atashadi. Bunday modellarda o'qiydigan talabaning faoliyati taxminan 50% mustaqil ishdan (materialni o'zlashtirish, forum va chatlarda ishlash, e-mail orqali muloqot va h.k.) iborat bo'ladi. An'anaviy ta'limda talabani o'qitishadi, blended learningda esa – o'qishga o'rgatishadi, mustaqil faoliyatini tashkil qilishadi. An'anaviy ta'limda markazda – o'qituvchi (teacher-centered), blended learningda esa talaba (student-centered) markazda bo'ladi. Bunda talaba ko'p ishlaydi va muvaffaqiyatlari uning o'ziga bog'liq. Talaba o'quv jarayoniga tuzatish kiritishi va o'zgartirishi ham mumkin. O'zlashtirishni baholash eng e'tibor qaratiladigan qism hisoblanadi. Chunki yaxshi baho olish – asosiy maqsad sanaladi. O'qituvchilar uchun bu ko'rsatkich talabalarning qanchalik rivojlanganligini anglatadi. An'anaviy ta'limdan farqli ravishda blended learningda nazorat biroz boshqacharoq bo'ladi. Eng avvalo ish guruhli tarzda bajariladi, on-line muloqotlar juda ko'p bo'ladi. Guruhning umumkiy bahosi barcha talabalarning baholarining yig'indisiga teng. Bunda har bir talabaning forumdagi ishtiroki haqidagi hisobot inobatga olinadi. O'qituvchi talabadan o'zining forumga tegishli e-mail ma'lumotlari nusxasini yuborishni so'rashi mumkin. Loyiha ikki qismdan iborat bo'lishi mumkin: yakka va guruh bo'lib bajariladigan. Guruh ballari talabalarga forumdagi ishtirokiga qarab bo'linadi. Har bir o'qituvchi o'z bilganicha yakka ishlash va guruh bo'lib ishlash bo'yicha 100 ballik tizimda baholarni qo'yadi. O'qituvchining baholari on-line tizimida barchaga ochiq ko'rinadi. Biroq, kompyuter baho qo'yganda xatoliklar bo'lib turadi. Kompyuter nazoratidan o'rgatuvchi dasturlarda va joriy nazoratlarda test va fill-inblank,

obyektlarni saralash, o'yin va h.k. usullarida foydalaniladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim jarayonida aralash ta'limni qo'llash obyektiv hamda kommunikativ sohalarida ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Bunday ta'lim nafaqat kasbiy mahorat darajasini oshirishga, balki talabalarning mavjud axborot ta'lim resurslaridan foydalanishga, o'qituvchi bilan sifatli hamkorlik qilishga, birgalikdagi faoliyat hamda muloqotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Tarixiy rekonstruksiya, simulyatsiya va loyiha asosida o'qitish metodlari o'quvchilarda faol bilim olish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Tarixiy rekonstruksiya o'tmishni tiklash, simulyatsiya real vaziyatlarni o'ynash, loyiha asosida o'qitish esa tadqiqot olib borish orqali tarixni jonli his qilish va o'zlashtirishga yordam beradi.

Tarixiy rekonstruksiya metodi

Bu metod o'tmishdagi voqea-hodisalar, turmush tarzi, kiyim-kechak yoki qurol-yarog'larni mavjud ilmiy ma'lumotlar asosida qayta tiklashni nazarda tutadi.

- **Asosiy jihatlari:** Arxeologik topilmalar, yozma manbalar va san'at asarlariga tayanadi.
- **Maqsadi:** O'quvchida o'tmish haqida ko'rgazmali tasavvur hosil qilish va tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash.

Simulyatsiya metodi

Simulyatsiya tarixiy jarayonlar yoki vaziyatlarni o'yin va modellashtirish orqali "jonlantirish" metodidir.

- **Asosiy jihatlari:** O'quvchilar tarixiy shaxslar rolini bajaradi, diplomatik muzokaralar yoki janglarni sahnalashtiradi.
- **Maqsadi:** Tarixiy sharoitni his qilish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Loyiha asosida o'qitish metodi (Project-Based Learning)

O'quvchilarning aniq bir tarixiy muammo yoki mavzu ustida tadqiqot olib borib, yakuniy mahsulot (taqdimot, maket, video) yaratishiga asoslanadi.

- **Asosiy jihatlari:** Mustaqil izlanish, jamoada ishlash va axborotni tahlil qilish.
- **Maqsadi:** Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va ijodiy yondashuvni shakllantirish.

Metodlarning afzalliklari:

- **Faol ta'lim:** O'quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.
- **Tarixiy tafakkur:** O'tmishni tahlil qilish va baholash ko'nikmasi rivojlanadi.

Zamonaviy yondashuv: 3D texnologiyalar va raqamli arxeologiyadan foydalanish imkoniyati.

Tarixni rekonstruksiya qilish, ya'ni qayta tiklash ma'lum bir tarixiy davr va mintaqaning moddiy yoki ma'naviy madaniyatini qayta tiklash jarayoni hisoblanadi. Tarixni rekonstruksiya qilish deganda ikki xil ma'noda tushunilishi mumkin: 1. Arxeologik va yozma manbalardan foydalangan holda tarix fanining zamonaviy usullaridan foydalanib, mavjud tarixiy ma'lumotlarga asoslanib, nazariy yoki amaliy jihatdan ob'ektning tashqi ko'rinishini, qurilishini kompyuter texnologiyalari asosida yoki tarixiy jarayonlarni nazariy jihatdan izchillikda qayta

tiklash. 2. Tarixiy voqealar yoki tarixiy davrdagi hayot tarzini turli tadbirlar o'tkazish asosida jonli ifoda etish va turli moddiy buyumlarni yasash. Tarixiy rekonstruksiya jarayonlari arxeologiya, etnografiya, sotsiologiya, lingvistika kabi fanlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Arxeologiya fanida jamiyatning ijtimoiy tuzumi moddiy manbaga asoslangan holda, etnografiyada qabilalarning ma'lum bir davrdagi urf-odatlarini namoyish qilishda o'z ifodasini topadi. Informatika sohasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, o'z navbatida tarixni rekonstruksiya qilish jarayonlarini takomillashtirib, tarixni yangi dalillar bilan asoslashga imkon yaratib bermoqda.

Tarixiy rekonstruksiya jarayoni o'zida yozma manbalardagi ma'lumotlarni, arxeologik, etnografik va boshqa turdagi ko'plab ma'lumotlarning tahlili asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda xronologik, analiz, sintez, taksonomik, sinxron, diaxron kabi ko'plab tarixiy uslublardan keng foydalaniladi. Qadimgi jamiyatni qayta tiklashda tabiiy va ijtimoiy fanlarning yutuqlaridan ham unumli foydalaniladi. Tarixiy rekonstruksiya jarayonida bir qator tamoyillariga amal qilish lozim. Bular: 1. Tarixiy manbalarni tanqidiy o'rganish tamoyili. Bunda manbaning muhimligi, ishonchliligi va asl nusxa ekanligiga e'tibor qaratiladi. 2. Ko'p tarmoqlilik tamoyili, bunda tarixiy jarayonni har tomonlama tushunish va uni umumiy jihatda yoritishda turli fan yutuqlaridan foydalanish muhim. 3. TAHLIL. Tarixiy rekonstruksiyaning turli yo'nalishlari mavjud. Ular faoliyat doirasiga va davrlarga asosida ajratiladi: 3. Kontekstuallashtirish tamoyili, bunda tarixiy hodisa va jarayonlarni keng va tor kontekstda - ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa jihatlarda ko'rib chiqish lozim. 4. Rekonstruktiv fikrlash tamoyili, bunda mavjud faktlar va dalillar asosida tarixiy voqelikni tiklashda mantiqiy va uslubiy jihatdan qurishni amalga oshirish lozim. 5. Farazni tavsiflash tamoyilida tarixiy rekonstruksiya natijalarini keyingi tadqiqotlar va yangi manbalar bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan faraz va taxminlar ko'rinishida taqdim etish zarur. 6. Tarixiy empatiya tamoyilida tarixdagi insonlarning fikrlari, qarashlari, his-tuyg'ulari va g'oyalarini tushunish va qayta qurish, shuningdek, voqea va hodisalarni kontekstual idrok etish lozim. 7. Tarixiy kontingentning rivojlanish tamoyilida tarixiy jarayonning rivojlanishida tasodifiy holatlar, kutilmagan hodisalar va mantiqsiz omillarni hisobga olish lozimdir. 8. Dialektik tafakkur tamoyilida turli omillar va qarama-qarshiliklarning o'zaro ta'sirini, shuningdek, tarixning noaniqligi va ko'p qirraliligini anglash lozim. 9. Tarixiy dolzarblik tamoyilida zamonaviy hodisa va jarayonlarni anglashda tarixiy rekonstruksiya natijalaridan foydalanishni bilish lozim. Tarixiy jarayonlarni qayta tiklashda bundan tashqari boshqa uslub va tamoyillardan foydalanish mumkin. Bunda tadqiqotning aniq maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tarixni har jihatdan mukammal, ob'ektiv rekonstruksiya qilish murakkab jarayon sanaladi. Buni tarixiy tadqiqot uslublarini aniq bilgan va anglagan holda amalga oshirish lozim.

Tarixni rekonstruksiya qilishda quyidagi uslublar qo'llaniladi: 1. Eksperimental uslub. Bu uslubdan arxeologiya, etnografiya, muzeyshunoslik va boshqa maxsus tarixiy fanlarda qo'llaniladi. U o'tmishdagi aniq bir moddiy manba va ma'naviy madaniyatni qayta tiklashga qaratiladi. 2. Anglash uslubi. Bu uslub

o'tmish voqea va hodisalarini to'liq bo'lmagan tarixiy ma'lumotlari asosida to'liq tasavvurni tiklash va ularni tushuntirishga qaratilgan. 3. Tarixiy rolli o'yinlarni yaratish uslubi. Bu ayniqsa, tarixiy bayramlarni va jang sahnalarini tashkil qilishda keng qo'llaniladi. 4. Tarixiy buyumlarning maketini yaratish uslubi. Bu uslub arxeologiyada keng qo'llaniladi. Unda turli harbiy qurollar, turar joylarning maketlari, sopol buyumlar va bq. yaratiladi.

O'tmish tarixini rekonstruksiya qilish birinchi navbatda tarixiy manbalarning o'rganilishi va uning tadqiqot doirasiga bog'liq. Mavjud tarixiy manbalar ob'ektiv ravishda tahlil qilinib, o'zining isboti va daliliga ega bo'lsagina, shuningdek, retrospektiv (o'tmish nazar tashlash) ma'lumotlar bilan ishlashning yondoshuvlari va usullari qanchalik to'g'ri tanlansa, shundagina biz o'tmishni qayta tiklay olamiz. Bu jarayonda o'sha davrda mavjud bo'lgan mafkura, diniy qarashlarni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. O'tmish haqida ma'lumot olishning eng birinchi qadami, bu tarixiy manbadir. Bunda dastlab bu manbani o'rganish lozim. Bunda tarixiy manbaning kim tomonidan yozilganligi, ya'ni voqeaga guvoh bo'lgan odam tomonidanmi yoki ko'chirilgan nusxami yoki ihtibos keltirilganmi degan savollarni aniqlash lozim. Shuningdek, bunda muallifning mazkur voqeaga qarashlari ham muhim sanaladi, chunki muallif voqeaga real baho bermasdan, o'z qarashidan kelib chiqib, ijobiy va salbiy fikr bildirishi ham mumkin. Tarixni rekonstruksiya qilishdamanbalardagi ma'lumotlar yetarli bo'lmaydi. Misol tariqasida "Avesto" matnlarini keltirsak, bunda uning "Goh" qismlarida berilgan so'zlarning aksariati vaqtlar davomida o'zgarib ketgan. Unda berilgan geografik atamalar va joylarning geografik tasnifi umuman bugungi kun uchun mos emas. Shuningdek, uni qayta yozish jarayonida o'zgarishlar ham kiritilgan. Uni rekonstruksiya qilish uchun esa, bugungi kunga interpretatsiya qilish lozim. Bu esa, tarixchidan ma'lum ko'nikma va malakani talab etadi. "Avesto" dagi jamiyatni qayta tiklash uchun lingvinistik, toponomik va arxeologik tadqiqot ma'lumotlari ham muhimdir. Tarixni nazariy jihatdan qayta tiklashda birinchi navbatda rekonstruktorning tasavvuri turadi, chunki u tarixiy dalillarni tarixning metodologik uslublari orqali tahlil qiladi va shu orqali tarixni tushuntiradi. Bunda uning dunyoqarashi, bilim darajasi muhim o'rin tutadi. Rekonstruksiyada uch jihatga - tarixiy tasvirga, tarixiy dalilga va tarixiy voqealarni bayon qilishga e'tibor qaratiladi. O'rta Osiyoda tarixni rekonstruksiya qilish jarayonlari XX asrning 30 yillaridan boshlangan. Bu o'lkada olib borilayotgan arxeologik tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lgan. Arxeologik tadqiqot ishlari va yozma manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash orqali tarixiy rekonstruksiya ishlarini olib borishgan. Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov tarixni rekonstruksiya qilishda arxeologik ma'lumotlar bilan bir qatorda etnografik ma'lumotlar ham muhim rol o'ynashini ta'kidlangan. V.M.Masson arxeologiyada tarixiy rekonstruksiya masalalarini metodologik uslublarini ko'rsatib beradi. U arxeologik materiallar asosida tarixiy jarayonlarni yoritish masalalariga e'tiborni qaratadi. Arxeologik manbalar asosida madaniy taraqqiyot va ijtimoiy turmush tarzini ochib beradi. A.V.Vinogradov tabiiy sharoit, lanshaft, hayvonot va o'simlik qoldiqlarini o'rganish orqali neolit davri odamlarining turmush tarzini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Bunda

paleozoologiya, paleobotanika fanlari tadqiqotlaridan foydalanish muhimligini ko'rsatadi. XX asrning 50 -yillarida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi Janubiy Orolbo'yi hududlarining o'zlashtirilishi o'rganish orqali hududning paleogidrografiya va paleoekologiya rekonstruksiyasi mavzulariga oid muhim ilmiy ma'lumotlar fanga tatbiq etildi. Ya.G'.G'ulomov va B.V.Andrianovning ilmiy tadqiqotlarida qadimgi Xorazmning sug'orish tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalalarini o'rganish orqali ular nazariy jihatdan qayta tiklangan. M.G.Vorob'eva Xorazmning antik davrga oid terrakotalari, ostodonlari va suvdonlardagi bo'rtma tasvirlarni tadqiq qilish orqali qadimgi xorazmliklarning diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni rekonstruksiya qilishga muvaffaq bo'lgan. teatrlashtirilgan sahnalar ham tarixni rekonstruksiya qilishning yana bir o'ziga xos yo'nalishi hisoblanadi. 2019 yilda Toshkent shahrining markazida "Naruz" nomidagi etnografik park tashkil etildi. U 2,5 gektardan iborat bo'lib, bu yerda O'zbekistonning barcha hududlaridagi tarixiy binolarning kichiklashtirilgan nusxalari, ya'ni maketi yasalgan. Bu yerda Registon maydoni, Oq-saroy, Xudayorxon o'rdasi, Xiva arki, Kalta minor kabi me'moriy obidalar qurilgan. Har bir viloyatning aholi turar joylarining ham maketi yasalib, ko'chalari shakllantirilgan. Tarixiy rekonstruksiyaning bunday turi ham tarixning mohiyatini anglashda, yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishda ahamiyati katta hisoblanadi. O'lkada turizm sohasini rivojlantirishda ham o'z o'rniga ega. Tarixiy rekonstruksiyaning bunday turida tarixchilar me'morlar va quruvchilar bilan hamkorlikda ishlashiga to'g'ri keladi. Toshkentshahri. "Navruz" etnopark. Umumiy ko'rinishi XX asrning 80- yillarida I.V.Pyankov yozma manbalarni keng tahlil qilish orqali Zardushtning yashagan davri va makonini nazariy jihatdan tarixiy rekonstruksiyasini yaratgan. Shuningdek, O'rta Osiyoning qadimgi davrdagi o'troq aholisining ijtimoiy jamiyatini rekonstruksiya qilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar aholining turmush tarzi xususiyatlarini, xo'jaligini, uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari haqidagi nazariy qarashlarni isbotlashda o'rni muhim hisoblanadi. XX asrda O'zbekistonda olib borilgan tarixiy rekonstruksiya masalalari ko'pincha arxeologiya sohasi bilan bog'liq holda olib borilgan. Arxeologik manbalar yoki turar joylarning rekonstruksiyasi nazariy jihatdan ishlab chiqilgan. Shuningdek, rekonstruksiya qilingan qal'alar yoki topilmalarning faqat chizmalari ishlangan. Bunga misol qilib, Zamonbobo madaniyatiga oid chaylani keltirish mumkin. O'zbekistonda qadimiy bayram-Navro'z tadbirlarini o'tkazishda milliy urf-odat, ashula va raqslarni teatrlashtirilgan sahnalarda qayta tiklaydilar. Turli tadbirlar va bayramlarni o'tkazishda qo'llanilgan teatrlashtirilgan sahnalar ham tarixni rekonstruksiya qilishning yana bir o'ziga xos yo'nalishi hisoblanadi. 2019 yilda Toshkent shahrining markazida "Naruz" nomidagi etnografik park tashkil etildi. U 2,5 gektardan iborat bo'lib, bu yerda O'zbekistonning barcha hududlaridagi tarixiy binolarning kichiklashtirilgan nusxalari, ya'ni maketi yasalgan. Bu yerda Registon maydoni, Oq-saroy, Xudayorxon o'rdasi, Xiva arki, Kalta minor kabi me'moriy obidalar qurilgan. Har bir viloyatning aholi turar joylarining ham maketi yasalib, ko'chalari shakllantirilgan. Tarixiy rekonstruksiyaning bunday turi ham tarixning mohiyatini anglashda, yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishda ahamiyati katta

hisoblanadi. O'lkada turizm sohasini rivojlantirishda ham o'z o'rniga ega. Tarixiy rekonstruksiyaning bunday turida tarixchilar me'morlar va quruvchilar bilan hamkorlikda ishlashiga to'g'ri keladi.

Mustaqillik yillarida E.V.Rtveladze, V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniyazov, B.I.Vaynberg, S.B.Bolelov, S.R.Baratovlarning arxeologik tadqiqot ishlari tarixiy rekonstruksiya masalalari bilan bog'liq holda olib bo'lirilgan. Bu davrning muhim hususiyati tarixiy rekonstruksiya masalalarining kompyuter texnologiyalari yutuqlari bilan bog'langan holda olib borilishi bo'lgan. Bu davrda qal'alarning va turli arxeologik topilmalarning vertual varianti va 3D formatini yaratila boshlanadi. AutoCAD dasturining yaratilishi va uning takomillashuvi natijasida me'moriy obidalarni, qadimiy yodgorliklarni uch o'lchamli yaratish imkoni paydo bo'ladi. 2013 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan Oqchaxonqal'a yodgorligi XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlarida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida uning tashqi ko'rinishi 3D formatda qayta tiklangan. Unda shaharning bugungi kundagi ko'rinishi bilan uning 3D formatdagi ko'rinishi solishtirilgan holda ishlangan. Oqshaxonqal'a mil.avv. IV asrda bunyod etilgan. Shahar Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani hududida, Sulton Uvays tog' tizmalaridan 15 km janubda joylashgan. Bu yerda 1995 yildan beri "Qoraqalpog'iston–Avstraliya" xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi o'z faoliyatini olib bormoqda. Oqshaxonqal'aning umumiy maydoni 56 gektarni tashkil etib, ichki va tashqi qal'adan iborat. Ichki va tashqi qal'alarning har biri alohida mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Har bir qal'aning mudofaasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shahriston xandak va proteyxizma bilan mudofaalangan. Ikki qator mudofaa devori qurilgan. Tashqi mudofaa devor qalinligi 1,7 metr, ikkinchi devor qalinligi 2,1 metr bo'lib, otish yo'lagingining kengligi 2,3 metr bo'lgan. Qal'a burchaklarida kvadrat, devor bo'ylab to'g'rito'rtburchak shakldagi burjlar har 23–30 metrdan qo'yilgan. Shaxmat tarzda nayzasimon shinaklar qo'yilgan. Shahristonning shimoliy qismida yuqori shahar–ark bunyod etilgan. U ham ikki qator mudofaa devori va proteyxizma bilan himoyalangan. Tashqi devor qalinligi 2,60 metr, ikkinchi devor 2,50 metr, yo'lakning eni 3 metrni tashkil qilgan. Arkning mudofaa devori 3 qavatli qilib qurilgan, yuqori qavati ochiq bo'lgan. Uning to'rtta darvozasi bo'lib, ular har bir tomonning o'rtasida qurilgan. Adashtirma yo'l va burjlar bilan himoyalangan. Shahristonning mudofaa devori tadqiqotchilar fikricha, milodiy I asrda qayta qurilgan. Ichki qal'aning markazida baland otashkada qurilgan, unga pandus orqali chiqilgan. U yerda mangu olov yonib turgan. Ichki qal'aning shimoli– g'arbiy qismida saroy–ibodatxona topilgan. Ibadatxonadan o'tgan yo'lak devorlariga devoriy suratlar chizilgan. Tadqiqotchilar bu yo'lakning umumiy uzunligi 240 metr ekanligini qayd qilishgan. Bugungi kungacha uning 60 metrda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tarixiy rekonstruksiya uslubidan tarixni tadqiq qilish va o'rganishda foydalanish katta samara beradi. Unda tarixning o'rganilmagan tomonini ko'rish mumkin, tahlil orqali ob'ektiv yoritish imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa, jamiyat rivojlanishining asosini ko'rsatib, kelajagini bashorat qilish yo'llarini aniqlaydi. Tarixni rekonstruksiya qilishning turli yo'nalishlari bo'lsa-da, bugungi kunda

uning axborot texnologiyalari asosida qayta tiklanishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu soha xorijiy davlatlarda keng miqyosda taraqqiy eta boshlagan bo'lsa-da, uning muammoli tomonlari mavjud. Uch o'lchamli tarzda qayta tiklangan maketlarni gologramma (fazoviy tasvirni hosil qilish uslubi) asosida ko'rinishlarini yaratishmoqda. Bu esa, tarixiy davrlarni ham "jonlantirish"ga imkon beradi

3. Bilimdon, madaniyatli, ma'naviy yuksak mutaxassis kadrlarnitayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jihatdan ustozlarga, ularning bilimdonlik bilan o'qitish jarayonini tashkil qilishiva dars berishiga bog'liq. Ustozlik qilish sharaflı, lekin nihoyatda mashaqqatli ish.

Ma'lumki, pedagog mehnati boshqa mehnat turlaridan o'zining xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. U tabiatning eng buyuk mo'jizasi bo'lgan insonni o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan.

2. U o'zida mutaxassis, pedagog, boshqaruvchi va tadqiqotchini bir butun holda mujassamlashtiradi.

3. O'qituvchi **gapirib turib, o'ylashni** bilishi kerak. O'qituvchilik kasbining, mehnatining, mahoratining o'ziga xosligi ham shunda. **Darsberishda fikrlash, o'ylash va gapirish jarayoni qo'shib ketadi.** Avval o'ylab olib, keyin so'zlashga fursat bo'lmaydi.

4. O'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati boshqa sohalar dagimenejerlardan katta farq qiladi. O'qituvchini boshqaruvchi sifatida o'ziga xos tomoni shundaki, a) u har qanday muammoli vaziyatda yagona qaror qabul qiluvchidir. Demak, uning qanday qaror qabul qilishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Boshqarishning o'zi turli-tuman chora-tadbirlarni ma'lum bir miqdor va nisbatda, zarur vaqt va ketma-ketlikda go'llash san'atidir; b) o'qituvchidan o'z hissiy holatlarini boshqara bilish talab etiladi.

Pedagogning o'quvchi-talabalar bilan bo'ladigan muloqoti, rasmiy xarakterga ega bo'lganligi sababli u doimo ta'lim oluvchilarnigina emas, ota-onalar va jamoatchilik nazoratida ishlaydi. Bularning hammasi bo'ladigan mashg'ulotga o'zini psixofizik nuqtai nazardan moslash, muloqot paytida o'zining hissiy holatlarini boshqara olishini talabqiladi;

d) o'quy jarayoni, ayniqsa dars o'tishda talabalarni boshqarishda, ularga axborotni yetkazishda o'rganilayotgan mavzuning mazmunini yetkazishda mimika, pantomimika, ovoz ohangini o'zgartirish, ko'z qarashlari bilan ta'sir ko'rsatish alohida o'rin tutadi. Uning nigohi doimo ta'lim oluvchilarda bo'lib, ulari diqqat markazida ushlab turishga intilishi, shu bilan birga turli darajadagi bilimga, xohish va irodaga hamda tarbiyaga ega bolgan talabalarni ajoyib san'atkor kabi o'ziga ergashtira olishi zarur.

5. O'qituvchi loyihachi (rejalashtiruvchi), uni amalga oshiruvchi vabaholovchini ham ozida gavdalantirishi bilan ajralib turadi. **Loyihalash malakasi** – bu ilmiy izlanishni yoki o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirishning intellektual jihatidir U o'quv jarayonini samarali tashkil etishi uchun doimo darni rejalashtirish, uni qanday amalga oshirish va baholashga diqqat garatishi zarur.

Buni Methods for teaching (O'qitish metodlari) kitobi mualliflari alohida ta'kidlashadi. O'qituvchi loyihachi sifatida dars o'tish loyihasini (rejasini), ya'ni nitenologik xaritasini ishlab chiqadi. Uni dars jarayonida amalga oshiradi hamda baholaydi. Baholash bir tomondan ta'lim oluvchilarni baholash bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z-o'zini baholash, ya'ni o'tilgan darsni ijobiy jihatlari va kamchiliklarini baholash tarzida kechadi. Muvofiq ravishda qaror qabul qiladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi.

6. O'qituvchining butun pedagogik faoliyati nazariya bilantajribaning, fan bilan turmushning birligiga asoslanadi. Ta'lim-tarbiya garama-qarshiliklarni qamrab olgan murakkab jarayon. U bilimlikdan bilishga, chala bilishdan to'liq bilishga, predmetni, obyektiv dunyoni bilishdan uning mohiyati, bog'lanish qonuniyatlarini organish jarayonidir. Pedagogik jarayonning maqsadi, faqatgina talabani tarbiyalash, o'qitishni tashkil qilishdan iborat bo'lmay, uning o'qitish uslublarini va ulardagi barcha munosabatlarni tizimini aniqlashdan iborat.

Bunday murakkab, mashaqqatli mehnat pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, o'qituvchidan birinchi navbatda quyidagilarni talab qiladi:

- Jismoniy va aqliy salomatlik;
- Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar;
- Kuchli va keng qamrovli bilim;
- Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat;
- Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va imlo savodxonligi;
- Muttasil o'z ustida ishlash, malakasini oshirish va boshqalar.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodnikongildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka vapedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini hayot ko'rsatib turibdi.

Pedagogning shaxsiy fazilatlarini uning ta'lim oluvchilar oldida obro'sini belgilaydi, ta'lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma'lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodnikongildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka vapedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini hayot ko'rsatib turibdi.

Qadimgi mashhur yunon faylasuflaridan biri Aflotun, **agar kosibyomon usta bo'lsa, bundan davlat juda katta narsa yo qotmaydi – faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Lekin yoshlar tarbiyachisi agarda o'z vazifalarini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va axmoqlar toifasi vujudga keladi,** degan ekan.

Mamlakatimizda ham o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy

salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan hozirgi kunning zaruriyatidan kelib chiqib, jiddiy talablar qo'yilmoqda.

Pedagogik mahorat deganda - pedagogik jarayonni bilish, unitashkil etish, uning yuqori darajada samaradorligini ta'minlagan holda amalga oshiruvchi shaxsning ish sifati va xislatlari sintezini tushunamiz.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-nasiga o'tuvchixususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi, degan fikrlar mavjud. Bu fikrda jon bor, lekin unga tabiat tomonidan berilgan xislatlar ham nihoyatda muhim rol oynaydi. Buyuk faylasuf Suqrot "Hamma kasblarni o'rgansa bo'ladi. Lekin uch kasb xudodan"-bular tabiblik (vrachlik), pedagoglik (o'qituvchilik, muallimlik), sudyalik (qozilik) degan ekan. Chunki bu kasb egalari faqat o'qish, o'rganish tufayli emas, balki tabiatan unga ato qilingan fazilatlar orgalishu kasbni egallashadi va uni real hayotda muvaffaqiyatli qo'llashadi. Bundan kelib chiqib, o'qituvchining, pedagogning shaxsiy fazilatlarini ikki guruhga bo'lishimiz mumkin: tabiiy fazilatlar; tabiiy fazilatlar asosida o'qish, o'rganish, tajriba to'plash jarayonida orttirilgan xislatlar, qobiliyat.

Pedagogning shaxsiy fazilatlarini, xislatlarini uning ta'lim oluvchilar oldida obro'sini belgilaydi, ta'lim berish va tarbiyalay olish mahoratigata'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki uhar bir o'qituvchining tabiat bergan fazilatlaridan, xislatlaridan kelib chiqib, o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi varivojlanadi. Zamonaviy talab darajasida bilim berish uchun, avvalomurabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak. **Bu birinchimezon.**

Yetarlicha bilim qay darajadagi bilim? Amerikalik olimlarni fikricha, bilmaganingdan boshqasini o'qitish mumkin, degan fikruzoq vaqt hukm surgan. Hamda savolga javob tariqasidabu daraja fanni o'qitish uchun siz sarflagan soatlarga asoslanadi, degan fikr bildiriladi. Lekin Rudolf Dreykursning fikricha, predmetni bilish yetarli emas. Bundan tashqari murakkab, qiyin fikr, g'oyalarni mazmun-mohiyatini anglash, larni lushunarli mavzuga aylantirishni bilish kerak.

O'qituvchi uchun **ikkinchi mezon** – pedagogik bilim. U o'z ichiga bilishga oid sohalarni o'rganish darajasi, o'que maqsadi va boshgamaqsadlarni qo'ya bilish, darni rejalashtirish, (loyihalashtirish), qo'llaniladigan metodlarni aniqlash, vaqt taqsimotini belgilash, muammoli savollar qo'yish, bajariladigan ishlar tartib-qoidalarini ishlab chiqish hamda testlar va boshq topshiriqlar tayyorlashni oladi.

Uchinchi mezon, o'qitish, orgatish ko'nikmasi bo'lib, qanday strategiya, usullar, metodlar, topshiriqlar yordamida o'quvchi-talabalarni fanni o'rganishga jalb eta olishi.

Shuning uchun ham AQShda ta'lim sifatini oshirishga o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma, malakasini oshirish orqalierishishga hamda o'qituvchilarning professional kompetentligini baholashga diggat garatildi. Bunda 1987-yili tashkil etilgan ikkiyetakchi tashkilot Pedagoglarning professional standartlari bo'yicha Milliy kengash (**National Board for Professional Teaching Standards - (NBPTS)**) va Yosh (boshlovchi) o'qituvchilarni baholash va qo'llab-quevatlash hududlararo konsorsiumi (**Interstate New Teacher Assessment and Support**

Consortium - (INTASC) alohida o'rinegallaydi. Ular birgalikda pedagoglarning milliy standartlarini hamda ulamning ana shu qo yilgan talablarga muvofiqligini baholash tizimini ishlab chiqishdi.

AQShda ikki: O'qituvchilar Akkreditatsiyasi bo'yicha Milliy Kengash (**National Council for Accreditation of Teacher Education and (NCATE)**) hamda O'qituvchi ma'lumoti boyicha Akkreditatsiyasi Kengashi (**Teacher Education Accreditation Council (TEAC)**) standartlarni ishlab chiqildi. Bu standartlar asosida ular tomonidan akkreditatsiyadan otgan tashkilotlar o'qituvchilarning kompetentlik darajasini aniqlaydilar, malakalarini oshirishga yordam beradilar hamda ularning bilimi, ko'nikmasi va malakasi darajasi talabalarni o'qitishga yetarli ekanini jamiyat oldida kafolatlaydi.

Respublikamizda ham global miqyosdagi ozgarishlar hamda barcha masalalar kop jihatdan kadrlarga borib taqalishini hisobga olib, rivojlangan mamlakatlar va o'z tajribamizdan kelib chiqib, ta'lim tizimining sifatini oshirishda o'qituvchilar, ularning bilim va mahorati asosiy rol o'ynashini nazarda tutib, ularning zamon talablariga javob berishi va uning darajasini aniqlash zarurligi, buning uchun muvofiq ravishda uning mezonlarini ishlab chiqishga diqqat-e'tibor qaratildi

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni o'qituvchilar mas'uliyatini yanada oshiradi. Farmonning mazmun-mohiyatini talabalar ongigayetkazibgina qolmay, uni amalga oshirilishini ta'minlash va bu yo'ldash xdam harakat qilish, gadam tashlashga yo'naltirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Takrorlash va munozara uchun savollar:

1. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy modeli va konseptual asosi nimalardan iboratligini aytib bera olasizmi?
2. Nima sababdan global miqyosda ta'limga diqqat-e'tibor qaratilmoqda?
3. Metodika deganda nimani tushunamiz? Metodlarning obyektiv va subyektiv jihatlarini ta'riflang.
4. O'quy jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari qaysilari, ular qaysi jihatlar bilan farqlanadi?
5. Ta'lim strategiyasi deganda nimani tushunasiz? U dars o'tish metodlari bilan qanday bog'liq?
6. Didaktikaning asosiy tamoyillari nimalar?
7. O'qitish jarayonining obyektiv va subyektiv jihatlarini ko'rsating.
8. Dars jarayonida o'qituvchining roli, tarix fanlaridan dars beradigan o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarni gapirib bering. Sizningcha, o'qituvchiga yana qanday talablar qo'yilishi kerak?

TEST SAVOLLARI

1. "... - oldindagi faoliyat modelini to'zish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani etkazish vositasi va yo'llarini aniqlash"?
*A. Loyihalash
B. Tashxis qo'yish
C. Ta'lim berish
D. Bashorat qilish

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevga tegishli jumlaning toping?
A. "Tarix – millat tarbiyachisiga aylanmoqda"
*B. "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi"
C. "Kuch-bilim va tafakkurda"
D. "Kuch - adolatda"

3. "Tarix –hayot murabbiysidir" – so'zi kimga tegishli?
A. Leonardo do Vinchi
*B. Ciseron
C. Karamzin
D. Belinskiy

4. "O'tgan davr va jahon mamlakatlari o'tmishini bilmoq– inson ko'rki va uning aqliy mahsulidir"-so'zi kimga tegishli?
*A. Leonardo do Vinchi
B. Ciseron
C. Karamzin
D. Belinskiy

5. "Tarix xalqlarning muqaddas kitobi bo'lib, ularning hayoti va faoliyatlarining ko'zguasi, ota-bobolarining avlodlarga qoldirgan kashfiyotlari va odob-ahloqlaridan lavhalar bo'lib, hozirgi davrni sharhlash va kelajakka namuna bo'lib xizmat qiladigan, to'ldiradigan zaruratdir" – so'zi kimga tegishli?
A. Leonardo do Vinchi
B. Ciseron
*C. Karamzin
D. Belinskiy

6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahrir) qachon tasdiqlangan?
A. 2018 yil 29 avgust
B. 2005 yil 14 yanvar
C. 2017 yil 7 fevral
*D. 2020 yil 23 sentyabr

7. “Xalq ta’limi” jurnalida berilgan maqolada qachon birinchi marta “pedagogik texnologiya” tu’shunchasining mazmuni, uning ahamiyati haqida so’z etiladi?
A. 1991
*B. 1993
C. 1997
D. 1999
8. Qo’yidagilardan qaysi biri o’tmishni tiklashga yordam beradi?
*A. Tarixiy rekonstruksiya
B. Simulyatsiya
C. Loyiha
D. Matn
9. Qo’yidagilardan qaysi biri real vaziyatlarni o’ynash orqali tarixni jonli his qilish va o’zlashtirishga yordam beradi?
Tarix oqitishni tashkillashtirish deganda nima tushiniladi?
A. Tarixiy rekonstruksiya
*B. Simulyatsiya
C. Loyiha
D. Matn
10. “Keys stady” ingliz tilidan olingan bo’lib, deganni anglatadi.
*A. “holatni o’rganish”
B. “aql mehnati”
C. “g’oyalar to’plami”
D. “besh qator?”
11. “Sokratcha suhbat” metodi
A. Dars davomida barcha o’quvchilarni baholashga qaratilgan
B. Murakkab, ko’p tarmoqli muammolarni o’rganishga qaratilgan
*C. Yordamchi savollarga javob topish metodi, fikrlash asosida o’quvchini voqea-hodisalarning ahamiyatini tushunishga chaqiradi
D. Hatratlar ketma-ketligini to’g’ri tashkillashtirishga qaratilgan
12. Bunda oqituvchining roli tahlil qilish yoki sharoit yaratib berish ham o’quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat bo’lib, asosan o’quvchilarning o’zlari ishlashadi. Bu usul-...?
A. Monolog
*B. Polilog
C. Dialog
D. Epilog
13. Kartografiya fani haqidagi dastlabki ta’rifni (kartografiya atamasisiz) milodiy II asrda yashagan qaysi yunon olimi beradi ?

- A. Platon
- B. Aristarx Samosskiy
- C. Gerodot
- *D. Klavdiy Ptolemey

14. Fan, texnologiya, muhandislik, matematika?

- A. PIRIS
- *B. STEM
- C. TALIS
- D. PISA

15. Motivatsiya – nima?

- A. Ma'lim zarurliklarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab
- *B. Kishini faol faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi
- C. Pedagogika fanidagi ta'limning qonun va usullarini o'rganuvchi bo'lim
- D. Kuchli hayojon

16. “Pedagogik texnologiya – bu oqitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini ifodalashdan iborat” fikri kimga tegishli?

- *A. I.P.Volkov
- B. T.Sakamoto
- C. M.V.Klarin
- D. V.P.Bespalko

17. 1961-yildan qayerda “Educational Texnology” jurnali chiqarildi?

- *A. AQShda
- B. Yaponiyada
- C. Italiyada
- D. Angliyada

18. Oquv jarayonida oqitishning texnik qurollarini joriy etish davri qachon boshlandi?

- A. 1930-yillarda
- *B. 40-50 yillarda
- C. 60-yillardin' boshida
- D. 60-yillardin' o'rtalarida

19. “Interaktiv” so'zining ma'nosi?

- *A. “o'zaro harakat”
- B. “o'qitaman, o'rgataman”
- C. “to'liqtirish, tutashtirish”
- D. “yangilanish, yangilk, o'zgarish”

20. Psixologlar, verbal (og'zaki) o'quv usullaridan foydalanganimizda (monolog ma'ruza, hikoya, tushintirish) o'quvchilar, ma'lumotning 5% ini eslab qolishini

isbotlab bergan. Videofilm, tasvir, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarning qancha foizini esda saqlab qolishni ta'minlaydi?

- A. 10% in esda saqlab qolishni
- *B. 20% ini o'zlashtirishni ta'minlaydi
- C. 75% foizini saqlanib qoladi
- D. 90% ma'lumot o'zlashtiriladi

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1- amaliy mashg'ulot:

Zamonaviy ta'lim paradigmasida interaktiv o'qitishning o'rni

Ishdan maqsad: Tarix ta'limining ahamiyatini tahlil etish. Tarix o'qitishda yangi pedagogik texnologiya, interfaol metodlardan foydalanish.

Masalaning qo'yilishi: Tarix o'qitishning mazmun mohiyatini aniqlash. Tarix o'qitishda pedagogik va ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini ko'rsatish.

2-amaliy mashg'ulot:

2-Mavzu: Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarixiy rekonstruksiya

Ishdan maqsad: Tarix darslarini o'rganishda xorijiy metodlardan foydalanish, integratsion yondashuv.

Masalaning qo'yilishi: Tarix darslarining sifat ko'rsatkichlarini yuqori darajaga ko'tarish.

3-amaliy mashg'ulot:

Tarixiy manbalar bilan ishlashda interaktiv metodlardan foydalanish. Tarix darslarini loyihalashda interaktiv metodlarni integratsiyalash.

Ishdan maqsad: Tarixiy manbalar bilan ishlashda interaktiv metodlarni mosligi va natijasini ta'minlash.

Masalaning qo'yilishi: Tarix darslarini loyihalashda hamjihatlik, bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Amaliy ish savollari.

1-Mashg'ulot: Zamonaviy ta'lim paradigmasida interaktiv o'qitishning o'rni

Reja:

- 1.1. Tarix va tarix o'qitishning ahamiyati.
 - 1.2. Tarix o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Tarix darsida interfaol metodlardan foydalanish.
- A) Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi.

- B) Pedagogik texnologiya va metodika. Pedagogik texnologiya tushunchasi.
V) Tarix darsida interfaol metodlardan foydalanish.

TEST TOPSHIRIKLARI:

1. “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo’ladi” iborasi kimga tegishli?
_____ (*Sh.M.Mirziyoyev)
2. “Bugingi kunni tushunmoq va kelajagimiz to’g’risida ishoraga ega bo’lmoq uchun o’tmishimizni so’roqlab surishtirmog’imiz lozim” – so’zi kimga tegishli?
_____ (*D. Belinskiy)
5. O’qituvchining jonli so’zi qanday funktsiyalarni amalgam oshiradi?
_____ (*Mantiqiy, Ta’rbiyaviy, Axborot beruvchi)
4. Pedagogik faoliyatni kim «Amaliy san’at turlaridan biri» deb atagan edi?
_____ (*Ushinskiy K.D.)
5. Qaysi taniqli pedagog: “Pedagogik mehnat ilmiy tadqiqotga yaqin turadi” degan edi?
_____ (*Suxomlinskiy)
6. Ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadigan metodlar nima deb ataladi?
_____ (*interfaol metodlar)
7. Fan yoki mavzuni tavsiflaydigan, belgilangan reja bo’yicha tuziladigan besh qatordan iborat kichik adabiy asar metodi qanday nomlanadi?
_____ (*sinkveyn)
8. Ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq echim izlashga yo’naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashishidan olingan ma’lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishiga nima deyiladi? _____ (*keys)
9. Keys-stadi metodining asosiy tushunchasi nimadan iborat? _____ (*“vaziyat”)
10. Fikr, sabab, misol, umumiy lashtirish – qaysi o’qitish texnologiyasiga tegishli?
_____ (*PRES)
11. “Integratsiya” so’zining manosi? _____ (*“to’liqtirish, tutashtirish”)

2-Mashg‘ulot: Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish. Tarixiy rekonstruksiya

Reja:

1. Tarix darslarini loyihalashda blended learning va STEAM-elementlardan foydalanish.
2. Tarixiy rekonstruksiya.
3. Pedagoglarga qo‘yiladigan asosiy talablar. Pedagogik mahorat. Zamonaviy talab darajasida bilim berish kriteriyalari haqida

TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Fan, texnologiya, muhandislik, matematika? _____
(*STEAM)
2. “Buyuk didaktika” asarini muallifi kim? _____
(*Yan Amos Komenskiy)
3. Didaktik jarayoning to‘g‘ri qo‘yilishida o‘qish vaqtining qancha foizini o‘quvchining ixtiyoriga beriladi? _____
(*70 %)
4. Didaktik jarayoning to‘g‘ri qo‘yilishida o‘qish vaqtining qancha foizini o‘qituvchining ixtiyoriga beriladi? _____
(*30 %)
5. “Didaktika” so‘zining manosi? _____
(*“o‘qitaman, o‘rgataman”)

3-Mashg‘ulot: Tarixiy manbalar bilan ishlashda interaktiv metodlardan foydalanish. Tarix darslarini loyihalashda interaktiv metodlarni integratsiyalash.

Reja:

1. Matnli, vizual va raqamli tarixiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va talqin etishda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar.
2. Tarixiy hujjatlar, xaritalar, statistik ma‘lumotlar va vizual materiallar asosida interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqish.
3. Tarix darslarini loyihalashda interaktiv metodlarni integratsiyalash. Tarixiy voqea va jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashda guruhli va juftlikda ishlash texnologiyalari.

TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Oldindagi faoliyat modelini to‘zish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axboroti va qaytar aloqani etkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash? _____
(*loyihalash)
1. Kartografiya fani haqidagi dastlabki ta‘rifni (kartografiya atamasisiz) milodiy II asrda yashagan qaysi yunon olimi beradi? _____ (*Klavdiy Ptolemey)

V. KEYSLAR BANKI

Mini keys

Tarix fanining hozirgi zamon jamiyatidagi roli.

Tarix fani o'tmishdagi va bugungi mavjud ijtimoiy hayotni o'rgatuvchi va o'rganuvchi fandır. Lekin undan imkon qadar tarixiy jarayonni to'la va butunligicha, unga integratsion yondoshgan holda tadqiq etish talab qilinadi.

Tarixiy taraqqiyotdagi bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy madaniy hayot voqealarini o'rganish uchun qanday shart-sharoitlar bo'lgan?

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Tarix fanining kishilik jamiyati o'tmishning turli-tuman sohalaridagi taraqqiyoti va o'zgarib borishini o'rganish.
- Tarixiy voqealarning tarixiy makon va tarixiy zamondagi o'zgarishlarini solishtirish
- Mustaqillikka erishgandan keyingi o'tgan davr mobaynida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy sohalarda erishilgan yutuqlarni amalga oshirishdagi samarali yo'llarni aniqlash

Mini keys

Tarix fanini o'qitishda ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'nalishlari.

Hozirgi vaqtda inson bilan uni o'rab turgan muhitning tuzilishi va hususiyatlariga, shuningdek, ekologik omilning insonni jismoniy va ruhiy holatiga ta'sir kuchini tadqiq etadigan sotsial ekologiyaning mohiyati tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda

Sotsial ekologiya nimalarga asoslanadi va uning insonparvarligi nimalarga bog'liq?

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- “Tabiat-Jamiyat-Inson” degan yagona bir butunlikni o'rganish.
- Ekologik tarbiya va ekologik madaniyatni shakllantirib borish.
- Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklarni o'rganish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.
- Sof ekologik mazmunga va tarixga ega bo'lgan urf-odat va udumlarni o'rganish.

Mini keys

Tarix darslarida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tushunchasi

Milliy qadriyat tushunchasi fuqarolar ongida, ayniqsa, o'quvchi yoshlar tushunchalarida yo'l-yo'lakay shakllanib, kamol topib, insonni bu sohada harakatga keltiruvchi kuch darajasiga ko'tarmaydi.

Tarix darslarida yoshlarimizda milliy qadriyat-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asoslari nimalarga bog'liq?

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

<p>-Yoshlarni tarbiyalash har tomonlama yondoshishni samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy dasturlar va qo'llanmalar yaratish.</p> <p>-O'zbekistonni rivojlantirishning madaniy axloqiy negizlari bo'lgan:</p> <p>-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;</p> <p>-xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;</p> <p>-insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;</p> <p>-vatanparvarlik kabi xislatlarini kamol toptirish va hayotga tatbiq etish.</p>

SAVOLLI KEYS-STADI

Bir guruxda 20 o'quvchi bor. Ulardan 5 o'quvchi «5» bahosiga, 7 o'quvchi «4» bahosiga, 5 o'quvchi «3» bahosiga, 3 o'quvchining esa o'quv darajasi past hisoblanadi. Sinf raxbari ko'rsatgichni ko'tarish maqsadida bitta usul qo'llandi. Bu usul bo'yicha o'quvchilar 4 guruhga aralashtirilib bo'linadi. Har guruhga liderlar belgilanadi. Guruh a'zolarining to'plagan «5» baholari hafta oxirida sinf raxbari tomonidan sanalib, xulosa qilib borilgan. Eng ko'p baho to'plagan guruh sinf raxbari tomonidan rag'batlantirilgan. Qolgan guruhlarning a'zolari usha haftada barcha tozalik ishlariga javobgar qilib belgilangan, g'alabaga erishgan guruh a'zolari esa bu ishlardan ozod etilgan. Guruhlar ko'p baho to'plash uchun guruh tarkibidagi o'quv darajasi past o'quvchilarga topshiriqlarning tayyor echimlarini ko'chirtirib, ular uchun krossvord tuzib, jadvallarni to'ldirib ishlab bergan.

Savollar:

1. Sinf rahbarining qo'llagan usulini sizlar qo'llab-quvvatlaysizmi?
2. Sizlar qanday usulni tavsiya qilasiz?
3. O'quv darajasi past o'quvchilar bilan ishlash variantiga qalay qaraysiz?
4. Sinf raxbarining rag'batlantirish usulini maqullaysizmi?¹³

¹³ Караманова Г. Тарийхты оқытыў методикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2016. – Б. 129.

VII. GLOSSARIY

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning o‘zluksiz o‘zaro bog‘langan harakatlari tizimidir; 2) ta‘lim-tarbiya metodlarini u yoki bu to‘plamini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogning o‘zluksiz, o‘zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) ta‘lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o‘zaro hamkorligi asosida o‘qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo‘llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

«**Texnologiya**» yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib «*techne*» - mahorat, san‘at, malaka va «*logos*» - so‘z, ta‘limot ma‘nolarini anglatadi.

Ta‘limni texnologiyalashtirish – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta‘lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Pedagogika tizim – shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo‘naltirilgan va pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni ko‘zlagan, o‘zaro bog‘liq vosita, usul, jarayonlarning yig‘indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika– biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo‘llanadigan metodlar.

Metodologiya- dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta‘limot.

Muammoli o‘qitish – o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish shakli bo‘lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta‘lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Pedagogik faoliyat – ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik jarayon - ta‘lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

Pedagogik mahorat - pedagogik jaraenni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning YUqori samaradorligini belgilovchi shaxsing ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Didaktika - talim va o‘qitish nazariyasi hamda o‘qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Ta‘lim olish – bu bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini egallash jarayonidir, ya‘ni bunda shaxsning ijodiy faoliyatining jihatlari, dunyoqarashi va o‘zini tutish sifatlari tashkil topadi, hamda bilish qobiliyatlari rivojlanadi.

O‘qitish – bu ta‘lim oluvchilarga yangi o‘quv axborotini taqdim etish, uni o‘zlashtirishni tashkillashtirishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirilgan, muntazamli tashkiliy jarayondir.

Rivojlantiruvchi vazifa- o‘qitish jarayonida shaxsning aqliy, hissiy va irodaviy rivojlanishi, bilishga bo‘lgan intilishlarini va ijodiy faollikni shakllantirish

va rivojlantirishni ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Tarbiyalovchi vazifa – o'qitishni tarbiyalash prinsipiga asoslanadi. O'qitish va tarbiyalash jarayonlari o'zviy bog'liqlikda bo'ladi.

Bilim - haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Talabalar hodisa, voqea, qonuniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadilar va u ularning yutug'i bo'ladi.

Ko'nikma – egallagan bilimlar asosida o'zgaruvchan sharoitlarda birorta faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Malakalar – bu, ko'p marta takrorlash natijasidagi mashinal (beixtiyoriy), harakatlardir.

An'anaviy tizim- ushbu tizim asoschilari YA.O. Komenskiy, G. Pestalotssi, I. Gerbartlar ta'lim berishda asosiy o'rinni o'qituvchi faoliyatiga ajratganlar.

Dasturlashtirilgan ta'lim berish- bu g'oya 1950 yillarda ilgari surilgan.

Dasturlashtirilgan ta'lim berish asosini, tartibga keltirilgan topshiriqlarni namoyon qiluvchi, o'rgatuvchi dastur tashkil etadi. U butun o'qitish jarayonini boshqaradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim- o'qituvchining asosiy vazifasi bilish mustaqilligi va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, talabalarni o'quv faoliyatini tashkillashtirish hisoblanadi.

O'qitish mazmuni (o'qitish, ma'lumot olish)- ta'lim jarayonida egallashi zarur bo'lgan, ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar tizimi.

Ta'lim prinsiplari - bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarini belgilovchi asosiy koidalar tizimidir.

Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li.

Ma'ruza- davomli vaqt ichida katta hajm bo'yicha monologik o'quv materialini bayon qilish.

Seminar - bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

Fanni o'qitish uslubiyoti – ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalarini va o'qitish mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va o'qitish vositalari bayonini o'z ichiga oladi.

Konsepsiya - umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'limning texnik vositalari(TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta'lim vositalari (YOTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Grafikli tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi.

Ta’lim shakllari (forma-lotincha-tashqi ko‘rinish) - bu usul o‘quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

Ommaviy ish (frontal) - barcha ta’lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo‘yiladi.

Jamoaviy ish (kollektiv) - ham umumiy va guruhliga taalluqli bo‘lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo‘lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta’lim oluvchilar fikrlari tingladi va muhokama qilinadi); 4) Ma’qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

Guruhli- kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

Yakka tartibli (individual) - o‘quv topshirig‘ini yakka o‘zi bajarishi.

Nazorat – doimiy tekshirish yoki nazorat maqsadidagi tekshiruv. Ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma, malakalarini (BMK) aniqlash, o‘lchash va baholashni anglatadi.

Bilimni tekshirish va baholash – ta’lim jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, u ukuvchilarning o‘quv faoliyatini darsda, uyda og‘zaki, yozma va amaliy topshiriqlar yordamida tizimli nazorat yo‘li orqali amalga oshiriladi.

Ta’limiy va ta’lim berish vazifasi – o‘quvchi o‘qituvchini savoliga nafaqat javob beradi, balki topshiriq ham bajarib, o‘rtoqlari javoblarini mulohazalaydi, o‘zgartirishlar kiritadi.

Frontal tekshiruv – o‘zlashtirish lozim bo‘lgan (qoida, jadval, yilnomalar)ko‘p bo‘lmagan materialni tekshirish uchun qo‘llaniladi.

Og‘zaki tekshirish – nazoratning eng o‘zgaruvchan usuli bo‘lib, ta’lim berishning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi va talabalar bilan aloqani onson ushlab turishga, ularning fikr va harakatlarini ko‘zatishtga, javoblarini to‘g‘rilashga yordam beradi.

Yozma nazorat (*diktant, bayon yozish, savollarga yozma javob berish va yozma nazorat ishlari*) – vaqt bo‘yicha tejamli bo‘lib, butun guruhni va har bir talabani ta’lim olishga tayyorligini bir vaqtda aniqlash imkonini berib, topshiriqni individual bajarish xususiyati bilan ajralib turadi, biroq topshiriqni tekshirishga ko‘p vaqtni talab qiladi.

Boshqaruv - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan, faoliyatning maxsus shakli.

Maqsadni belgilash-didaktik vazifalarni aniqlash, o‘quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo‘lib, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo‘naltiradi.

Tashxis - ta’lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o‘rganish. Bu maqsadni to‘g‘rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Bashorat qilish - o‘rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o‘quv faoliyati natijalarini oldindan ko‘rish.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini to‘zish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish

bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani etkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

II.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston.– T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021. - 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. «Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar». – T.: “Tasvir”, 2021. - 52 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. - 536 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni - Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. - 368 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. - 392 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2024. -344 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4860-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi

“Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-358-son Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 717-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi “2025-2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 425-son Qarori.

13. BMT. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948.

14. BMT. Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya.1989.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Bhuvan Garg. Teaching of history (Тарихни ўқитиш). India. New Delhi.: Rajat publications. 2007.

2. Daniel J. Tew. Pedagogy of Teaching History: Comparing the Chronologic and Thematic Approaches. USA. Western Oregon University, 2014.

3. Abduraxmonov R.M. Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitlari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – 200 b.

4. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - T., 2021.

6. Воинова М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: Иктисод-молия, 2006. – 160 с.

7. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т.: Истеъдод, 2008. – 180 б.

8. Saidov U.S. Tarix darslarida interaktiv metodlardan foydalanish. O‘quv qo‘llanma. -T., 2022.

9. Тошпўлатов Т., Гаффоров Я. “Тарих ўқитиш методикаси”. Т., “ТУРОН-ИҚБОЛ”, 2010.

10. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбикий асослари – Т.: 2006.

11. Qodirov A., Islomov B. Tarix fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. -T., 2021.

12. Караманова Г. Тарийхты окытыу методикасы. – Н.: “Qaraqalpaqstan”, 2016.
13. Karamanova G.K., Allabergenov N.M. Tarix o’qitishda badiiy adabiyotning o’rni (uslubiy qo’llanma). – N.: QQDU, 2018. – 56 b.
14. Karamanova G.K., Allabergenov N.M. Xalq ma’naviy-ma’rifiy hayotida tarixning o’rni (uslubiy qo’llanma). – Nukus: QQDU, 2019. – 60 b.
15. Karamanova G. Tariyx oqitiw metodikasi. – N.: “Bilim”, 2025. – 364 b.
16. Xazratov F.X., Muxlisov S.S. “Tarix fanida innovatsiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar”. - T., 2020.
17. Yo’ldoshev J.G., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asosida darslarni loyihalash. - T., 2020.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://natlib.uz>
2. <http://edu.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://lib.bimm.uz>
5. <http://ziyonet.uz>